

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI YO‘NALISHI
HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI
“Rivoyat – dostonlar poetikasi” mavzusida
BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Halilov T.

Ilmiy rahbar: f.f.d., prof. Hasanov Sh.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK

HALILOV TULKIN SHONIYOZOVICH

Rivoyat – dostonlar poetikasi

5A220101 Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti)

mutaxassisligi

Bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV – MALAKAVIY ISHI

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga

ruxsat berildi.

“Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti”

M.O'.

ilmiy rahbar:

prof. Hasanov. Sh. _____

kafedra mudiri:

dots. Nosirov. A _____

SAMARQAND-2012

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

O'zbek filologiyasi fakulteti

“Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti” kafedrası

HALILOV TULKIN SHONIYOZOVICH

Rivoyat – dostonlar poetikasi mavzusi asosida

5A220101 – Filologiya(o'zbek filologiyasi) bakalavriat ta'lim yo'nalishi

Bitiruv – malakaviy ishi

Ilmiy rahbar: prof. Hasanov Sh

Rasmiy taqrizchi: dots. Eshniyozova Sh

Malakaviy bitiruv ishi o'zbek tilshunosligi kafedrasining 2012 yil ____ majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun tavsiya etilgan(11-son bayonnoma).

Kafedra mudiri: dots. Nosirov. A

Malakaviy bitiruv ishi YaDAKning 2012 yil ____ iyundagi majlisida himoya qilingan va ____ ball bilan baholangan(____-son bayonnoma).

YaDAK raisi prof. _____

A'zolari: _____

Samarqand 2012

**Samarqand davlat universiteti O'zbek filologiya fakulteti Hozirgi zamon
o'zbek adabiyoti kafedrasida majlisining 11 - bayonnomasidan**

K O ' C H I R M A

2012- yil 28- may

Qatnashdilar: kafedraning barcha a'zolari

Majlis raisi: dots.A.Nosirov

Kotiba: f.f.n. Davronova M.I.

KUN TARTIBI:

Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti kafedrasida 2011-2012 o'quv yilida bajarilgan malakaviy bitiruv ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida.

Eshitildi: 2011-2012 o'quv yilida bajarilgan malakaviy bitiruv ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri dots. A.N.Nosirov tanishtirdi va quyidagilarni bayon qildi:

2011ad-2012 o'quv yilida o'zbek filologiya fakulteti bakalavr yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi Halilov To'lqinning "Rivoyat – dostonlari poetikasi" mavzusida bitiruv malakaviy ishi yozdi. Ilmiy rahbari prof Hasanov Sh.. Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazalari bor. Shuning uchun so'zni Halilov To'lqinga bersak. U malakaviy - bitiruv ishining mazmuni bilan tanishtirsa.

Halilov To'lqin malakaviy bitiruv ishining mazmun-mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amalga oshirilgan ishlar haqida gapirdi.

Shundan so'ng talabaga prof. H.Umurov, Sh.Xasanovlar savollar berishdi. Savollarga Halilov To'lqin javob berdi.

Halilov To'lqinning chiqishi, savol-javoblardan so'ng mazkur malakaviy bitiruv ishini YaDAKga himoya etish haqida fikr-mulohazalar bildirildi.

QAROR QILINDI:

1. O'zbek filologiya fakulteti bakalavr yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi Halilov To'lqin "Rivoyat – dostonlari poetikasi" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va u yakuniy YaDAKga himoyaga tavsiya etilsin.
2. Halilov To'lqin ushbu malakaviy bitiruv ishiga Samarqand Davlat Universiteti rus filologiya fakulteti o'qituvchisi f.f.n Eshniyazova Sh. taqrizchi deb belgilansin.
3. Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti kaferasining ushbu qarorini tasdiqlash fakultet ilmiy kengashidan so'ralsin.

Majlis raisi:

Kotiba:

dots. Nosirov A.N.

f.f.n. Davronova M.I.

Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti 4 – kurs bitiruvchisi Halilov To'liqning “Rivoyat – dostonlar poetikasi” mavzuidagi bitiruv – malakaviy ishiga

TAQRIZ

Ma'lumki, keyingi yillar o'zbek dostonchiligida olib borilayotgan ilmiy hamda ijodiy izlanishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, A. Muxtorning “Dol qoya”, E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”, A.Oripovning “Hakim va ajal”, X.Davronning “Vatan haqida yetti rivoyat”, Q.Rahimboyeva “Qishning oxirlari”, A.Qutbiddinning “Izohsiz lug'at”, Faxriyorning “Ayolg'u”, “Yoziq” singari dostonlar bugungi dostonchilikning ijodiy mahsullari sifatida e'tirof etilsa, U.Normatov, N.Rahimjonov, Sh.Hasanov, D.Quvvatovalarning ilmiy maqolalari, monografiyalari bu borada olib borilgan tadqiqotlarni yangi bosqichga ko'tardi. Ularda olg'a surilgan fikrlar obe'ktiv tarzda namoyon bo'ladi. Shunga binoan SamDU o'zbek filologiyasi bitiruvchisi Halilov To'liqning rivoyat – dostonlar poetikasi masalasiga bag'ishlangan bitiruv-malakaviy ishi, mavzu doirasida obe'ktivligi bilan e'tiborga molik.

Malakaviy bitiruv ishi qo'lyozmada 68 bet hajmga ega bo'lib, kirish, xulosadan tashqari ikki bob, adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Kirish qismi (3-9- betlar) da muallif malakaviy - bitiruv ishining maqsad va vazifalari haqida aytib o'tib, ishning o'z oldiga qo'ygan maqsadi xususida quyidagilarni keltiradi: Birinchidan, bugungi dostonlar tarkibidagi shakliy hamda mazmuniy o'zgarishlarning tub mohiyati haqida aytib o'tadi: Ikkinchidan, doston janrining kompozitsiyasi va sujeti haqida to'xtaladi: Uchinchidan, keyingi yillarda mavzu doirasida olib borilgan tadqiqotlarning ishga ahamiyatli tomonlarini ochib beradi.

Ishning dastlabki bobi (10 – 35 – betlar) zamonaviy dostonlarning shakliy rang – barangligi xususidagi fikrlar bilan yoritiladi. Birinchi bobda dostonlar shakliy tahlil doirasiga tortiladi hamda A.Muxtorning “Dol qoya”, Mimuhsinning “Shiroq”, E.Vohidovning “Ruhlar isyoni”, X.Davronning “Vatan haqida yetti rivoyat”, Q.Rahimboyeva “Qishning oxirlari” kabi

dostonlari tahlil uchun manba vazifasini o'taydi.

Ishning ikkinchi bobi (36-59- betlar)da rivoyat – dostonlarining badiiyati xususida dostonning tili, ularda qo'llanilgan badiiy san'atlarning ahamiyati, ularning doston tarkibida tutgan o'rniga batafsil to'xtaladi. yuqoridagi dostonlar ikkinchi bob uchun ham asosiy manbalar bo'lib xizmat qiladi. Ishning “Umumiy xulosalar” (60-63-betlar), “Foydalanilgan adabiyotlar” (64 - 67-betlar)qismlari ham talablar darajasida bajarilgan.

Umuman olganda, T.Halilov o'z malakaviy bitiruv ishini reja – topshiriq asosida bajargan. Ish izchil, asosli fikrlar bilan alohida ajralib turadi. Uni tugallangan ish sifatida YaDAK oldida himoya qilishga tavsiya etaman.

Rasmiy taqrizchi:

f.f.n., dots.

Eshniyozova Sh.

KIRISH

Ming yillar davomida Sharq adabiyoti an'analari ta'sirida rivojlanib kelgan o'zbek adabiyoti XX asrda mazmunan va shaklan qator yangilanishlar jarayonini boshdan kechirdi. Bu davr o'zbek ijodkorlari mumtoz adabiyot an'alarini davom ettirish bilan birga jahon adabiyotining hayotbaxsh tajribalarini ham o'z ijodlariga singdira boshladilar. Istiqlol arafasi va undan keyingi davr adabiyotida bu xususiyat yanada kuchayganligini doston janri namunalari misolida ham ko'rish mumkin.

Doston deyilganda, eng avvalo, bizning ko'z o'ngimizda "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" singari xalqimizning betakror san'at durdonalari gavdalanadi. Biroq bugungi doston o'ziga xos xususiyatlari bilan xalq eposlari sanalgan "Alpomish", "Go'ro'g'li"lardan farqlanganidek, o'zining yaqin o'tmishdagi namunalaridan ham ajralib turadi. Har bir tarixiy davr, muayyan ijtimoiy voqelik doston tabiatida o'z izini qoldirib kelmoqda.

XX asrning 20-50-yillaridagi doston namunalari markazida muayyan qahramon hayotining xarakterli bir davri turardi. (G'.G'ulomning "Ko'kan", H.Olimjonning "Zaynab va Omon", Uyg'unning "Jontemir", A. Muxtorning "Po'lat quyuvchi" asarlari kabi). 60-70-yillarga kelib esa dostonlarga bir konkret voqea, real bir hayotiy hodisa asos qilib olinadigan bo'ldi va lirik qahramon o'sha voqea-hodisadan mutaassirlanish natijasida ko'nglida tug'ilgan ehtirolari, his-hayajonlari, xitoblari bilan doston sujetini harakatga keltiradigan bo'ldi (Mirtemirning "Surat", S.Zunnunovanning "Ruh bilan suhbat", E.Vohidovning "Nido" va boshqa dostonlar). O'tgan asrning 80, ayniqsa, 90-yillarida yaratilgan dostonlarda esa muayyan bir qahramonning hayot tarixi yoki muayyan bir voqea-hodisani asos qilib olish unchalik ham muhim bo'lmay qoldi (Zulfiyaning "Xotiram siniqlari", A.Mahkamning "Ishq", "Tavajjuh", I. Otamurodning "Istarim", "Sen", Faxriyorning "Ayolg'u", "Muchal yoshi", S.Ashurning "Tunchiroq" singari dostonlari). Asar markazida muayyan voqealar tizimi yoki ma'lum bir voqea turmaganligi bois bugungi dostonlar lirikaga yanada

yaqinlashdi, o'zining dostoniy ko'lamdorligini saqlash ehtiyoji esa mushohadakorlikning tasavvufiy-falsafiy, modernistik ohanglarini talab eta boshladi, hatto, xalq, Vatan kabi epik muhtashamligni taqozo etadigan yirik mavzular talqini ham subyektiv tarzda hal etiladigan bo'ldi. Tafakkur va ong osti qatlamlariga chuqurroq kirish natijasida doston qahramoni o'zlikni taftish qilishga qaytdi, o'zlikni barkamol etish tadorigini ko'ra boshladi. Zamonaviy shakl mumtoz mohiyatni shu tariqa qabul qila boshladi.

XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek dostonchiligining taraqqiyot yo'llari; ana'naviy xalq dostonchiligi uslubi va ohangida hamda mumtoz dostonchilik yo'nalishidagi poemalarda rivoyatlarning o'rni va roli haqidagi fikrlar ishning ilmiy yangilik hisoblanadi.

Tabiiyki, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda shakl va mazmun, syujet va kompozisiya, xarakter va konflikt kabi qator nazariy masalalar turlicha talqin qilingan. Ayni holat zamonaviy o'zbek dostoni poetikasini tadqiq etishni taqozo etadi.

XX asrning II yarmida qardosh xalqlar adabiyotshunoslari tomonidan muayyan xalq dostonchiligining ilmiy nazariy xususiyatlariga, evolyutsion taraqqiyotiga bag'ishlangan bir qator doktorlik dissertasiyalari himoya qilindi, monografik tadqiqotlar yuzaga keldi. Xususan, I. Neupokoyevaning qator ishlari, jumladan, "Revolyutsionno-romanticheskaya poema pervoy poloviny XIX veka" tadqiqoti yangi davr dostonchiligining muhim ilmiy nazariy asoslarini ochib berganligi bilan qimmatlidir. Tadqiqotda XIX asrning birinchi yarmi revolyusion romantiklar san'atining muhim muammolari o'rganiladi. Yevropa badiiy madaniyatining eng ilg'or yo'nalishini tashkil etgan bu davr poemachiligi umumevropa kontekstida kuzatiladi. Tadqiqotda o'z davri mafkurasining ta'sirini sezish mumkin. Jumladan, adabiyotshunosning simfonik kuylardan ham inqilobiy ohanglarni, "xalqning qahru g'azabi sadolari"ni tinglashi ilmiy mulohazalardan ko'ra badiiy mushohadaga mosroq keladi.

Yarim asr janr tarixi uchun katta davr emas. Lekin ayni shu yillarda janr spesifikasida qator o'zgarishlar yuzaga keldi, hayotni bir tomonlama tasvirlash

prinsiplaridan voz kechila boshlandi hamda inson ruhining erkin harakat-holatiga va uning turfa xil tasviriga e'tibor kuchaydi. Ijtimoiy hayotdagi o'sish-o'zgarishlar janr tarixi va taraqqiyotida ham o'z izini qoldirishi, shubhasiz. Zamonaviy o'zbek dostoni bizning ko'z o'ngimizda yangilanib bormoqda, yangi-yangi poetik qirralari bilan namoyon bo'lmoqda va tabiiyki, o'zining mumtoz qadriyatlariga tayanib, jahon she'riyatining tarkibiy bir qismiga aylanmoqda.

Bugungi kunda o'zbek dostonchiligi istiqlol sharofati tufayli yangi davrni boshdan kechirmoqda. Xalq og'zaki ijodi va mumtoz yozma dostonchilik ohanglarining zamonaviy dostonlar tabiatiga chuqur singib borayotganligi, Sharq va G'arb she'riyati ilg'or an'alarining omuxtalashib ketayotganligi, tasavvufiy qarashlar va komillik konsepsiyasining kun tartibiga qo'yilayotganligi, shaxs va borliq, tarix va davr, vaqt va makon masalalarining yangidan yangi talqinlarga tortilayotganligi hamda shafqatsiz realizmning qaror topib borayotganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini asoslaydi.

Mavzuning dolzarbligi. Biz bilamizki, doston badiiy turlarning qadimiylaridan biri bo'lib, o'zbek klassik poeziyasida she'riy qissa, xalq og'zaki ijodida she'riy-nasriy qissa shaklida uchratish mumkin. Uning taraqqiyot bosqichi ming yilliklarga borib taqaladi. Dostonlar o'zining dastlabki ko'rinishlarida xalqning og'izdan – og'ziga ko'chib yurish xususiyatini o'zida mujassamlashtirgani uchun, uning rivojlanishida xalq to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etgan. Undagi qahramonlar, obrazlar, epizodlar, voqea-hodisalar, hammasida xalqning dardi, orzu-umidlari, sevinch va quvonchi, hayot kechirish tarzlari o'z aksini topgan. Bundan ko'rinib turibdiki, dostonni xalqdan ayirib yoki xalqni dostondan mosuvo etib tasavvur qilib bo'lmaydi.

Asta-sekinlik bilan rivojlangan dostonchilik ham o'z navbatida davrlar osha o'zining ichki va tashqi ko'rinishlariga o'zgartirishlar kirita boshladi. Dastlab liro-epik tur sifatida tilga olingan dostonlar keyinchalik lirik ustivorlikka ega bo'lgan bo'lsada, mohiyatan – mazmunan o'zgarmagan holda saqlandi. Vaqt uning suratiga ta'sir qilib siyrati o'z holicha qoldi. "...insoning ruhiy-ma'naviy faoliyatining hosilasi bo'lmish san'at va adabiyot ham tabiatan kam o'zgaradigan

hodisalardandir”¹ Aslini olganda allomaning bu qarashida jon bor. Haqiqatdan ham, badiiy asarning markazidan insoning o’rin olishi va u inson uchun yaralganligi bois to’g’ridan-to’g’ri uni o’rganishda inson bilan qiyoslagan holda o’rganish maqsadga muvofiq deb ta’kidlayapti. Qolaversa, adabiyot insonga xizmat qiladi. Yana bir jihati, vaqt singari badiiy asar ham odamning ichki duyosiga, ruhiy-ma’naviy olamiga o’z ta’sirini o’tkazadi. Bu esa suratning emas siyratning ahamiyati birinchi planga chiqishini tamin etadi.

Biz bugun dostonlar haqida gapirar ekanmiz avvalo doston insondan nima oldi va nima berdi? – Degan savolni o’rtaga tashlashimiz kerak. Sababi, har qanday san’at asari, avvalo inson uchun yaratiladi va uning asl maqsadi insonning ta’rifini to’laligicha keltirishdan iborat. Chunki ijodkor o’z asarida o’zining dardini o’y – hayollarini kechinma va hislarini jamlashtirmas ekan. Unda asari qiymatsiz va keraksiz asar taqdirini o’zida mujasamlashtirishi muqarrar. Yana bir fakt. Asar muallifi dard va kechinmalarini asariga joylashtirgandan keyin u albatta umuminsoniylikni o’ziga singdirgan bo’lishi kerak. Agar shunday hislatdan yiroqda yaralgan bo’lsa asar taqdiri fojeali yakun topishi aniq. Shunday ekan, bugungi dostonchilikning o’rganilishi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Men ishimda ana shu kabi tomonlarga e’tiborni qaratdim.

Muammoning o’rganilish darajasi: Doston bugun va kecha o’rganilgan narsa emas. U yaralgandan beri o’rganiladi, o’zgartirishlar kiritiladi va sayqallaniladi. Dastavval dostonlarning o’rganilishida xalq ishtirok etgan bo’lsa, keyinchalik uning nazariy jihatlari bilan shug’ullanadigan muayyan bir kishilar bo’ldi. To’g’ri dostonlarning dastlabki tadqiqotlari nazariy jihatlariga e’tibor qaratmagan bo’lishi mumkin. Sababi hali nazariyaning yaratilmagani va asarning estetik qiymatidan boshqa tomonlariga e’tibor qaratilishi. Ammo “El bilganini sen bilmaysan”, degan xalq maqoli buni kamchiliklarini ko’rsatmaslikka harakat qiladi. Keyinchalik dostonlarining o’rganilishi ham xuddi dostonchilik singari xalqdan asta sekinlik bilan nazariyotchilar zimmasiga tushdi va bunda yaxshi natijalarga erishildi. Kandidatlik ishlari, doktorlik ishlari qilindi va dostonlarning

¹ Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти.- Т.: 2004. Шарҳ. 238.б

nazariy jihati to'raligicha o'rganib chiqildi. Bunda O.Sharafiddinov, Sh.Hasanov, N.Rahimjonov, Y.Eshbek, U.Normatovlar ancha salmoqli ishlar olib borishgan. Doktorlik ishlaridan biri bo'lgan «XX asr ikkinchi yarmi o'zbek dostonlari poetikasi» ishida. Shavkat Hasanov bugungi dostonlarni nazariy jihatlarini ochib bergan va kechaning dostoni bilan bugunning dostonlari o'rtasidagi farqlarni aniq ko'rsatib chiqqan.

To'rt tomlik “O'zbek sovet adabiyoti tarixi”; uch jildlik “Adabiy turlar va janrlar”ning I-jildi, “XX asr o'zbek adabiyoti tarixi” kabi yirik tadqiqotlarda, N.Karimovning “Urushdan keyingi davr o'zbek sovet adabiyoti”, N.Rahimjonovning “O'zbek sovet poeasi”, M.Ibrohimovning “O'zbek sovet poeziyasi janrlarining tarkib topishi” singari monografiyalarida bu masala keng ko'lamda ko'rib chiqilgan. Lekin bu ishlar hammasi umumiy tarzda olib borilgan.

“Adabiy turlar va janrlar”ning birinchi jildidan o'rin olgan N.Rahimjonovning “O'zbek sovet poeasining taraqqiyot jarayoni” deb nomlangan muhim tadqiqoti yangi davr dostonchiligi borasida bildirilgan mulohazalar, qarashlarni umumlashtiruvchi harakterga ega. Adabiyotshunos, yangi tipdagi doston spesifikasiasining ilmiy-nazariy xususiyatlarini monografik asosda o'rganadi, liro-epik poemaning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlaridagi yetakchi omillarni ochib berishga erishadi”² Shuningdek, poemalarni o'rganishda mustaqillikka erishilgandan keyin katta ahamiyat berildi. “Alpomish” dostoni millatimizning o'zligini namayon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agar xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tunganmas bir doston bo'lsa, “Alpomish” ana shu dostonning shoh bayti, desak, to'g'ri bo'ladi”³ demak, bundan ko'rinadiki dostonlarga bo'lgan qiziqish uni o'rganish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ekan, bunda bevosita ishtrok etish esa adabiyotshunoslarning oldiga qo'ygan muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Dostonlarni o'rganish va uni hayotga tadbiq qilish hali hamon to'xtagani yo'q. Shuni nazarda tutib, biz bugungi

² Xasanov III. XX asr ikkinchi yarmida uzbek dostonlari poetikasi. DD. Toshkent, 2004y, 87, 126, 132-betlar.

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-englilmas kuch. -T.: Ma'naviyat 2008y.

dostonlarda ana'naviy tarzda qo'llanilib kelinayotgan rivoyatlarning sujet va kompozitsiyaga, mazmun va shakliga ta'siri haqida tadqiqot olib borishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Qolaversa, shu masalaga aniq bir matn ijodiy namunalarni fakt qilib olib uning tahlili asosida maqsadimiz ustuvorligini ta'minlashni ko'zda tutganmiz. Vaqtning o'tishi hayotning hamma tomoniga birdek o'zining tasirini o'tkazagni singari adabiyotda ham vaqt ta'siri bilinishi muqarrar. Shuning uchun adabiyotning o'zgarishi va uni yangi qirralari yangiliklarini belgilab berishda, qolaversa, salbiy va ijobiy tomonlarini ko'rsatishda adabiyotshunoslikning o'rni beqiyos. Bugungi dostonlar o'zbek xalqining o'tmishda yaratilgan dostonlaridan shaklan farq qiladi. Biz yaxshi ma'lumki, adabiyot nazariyasida shakl va mazmun parallel tarzida o'rganiladi. Bunga asosiy sabab qilib, shaklning mazmunga, mazmunning shaklga doimiy tarzida ta'sir o'tkazib kelishidir. Yuqorida, dostonlarning shakli haqida fikr bildirgandik. Bugun doston to'liq lirik shaklga kirdi. Bu esa mazmuni ifodalanishida lirik imkoniyatlardan foydalanishni talab etadi. Men o'z ishimda aynan mana shu jihatlarni ochib berishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dostonchilik haqida qilingan ishlarning hammasi umumiy tarzdagi tadqiqotlar bo'lib, aynan rivoyat – dostonlari haqida qisqa fikrlar bildirildi.

O'zbek adabiyotshunosligida XX asning ikkinchi yarmida yaratilgan poemalarning janr tarixi va nazariyasi xususida O.Shararaffidinov, S.Mamajonov, N.Karimov, U.Normatov, N.Rahimjonov, I.To'lakov, N.Mirzaev, T.Abduqulov, Sh.Hasanov, D.Quvvatova kabi adabiyotshunoslarimiz o'z tadqiqotlarida dostonlardagi janr dinamikasi, o'lim o'tmish va buyuk ajdodlarimiz taqdiri sujet va kompozitsiya, bolalar poemachiligi va folklori singari masalalarga munosabat bildirilgan. Ammo dostonlarda rivoyatlarning keltirilishi haqida fikrlar qisqacha berilgan. Biz esa o'z ishimizda yuqoridagi fikrlarga tayangan holda batafsil tadqiqot olib borishga intilamiz.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqotning xulosalari o'zbek dostonchiligining tarixi, nazariyasi, hozirgi holati, o'zga janrlar bilan munosabati, uning umumjahon dostonchiligida tutgan o'rni kabi masalalarni yoritishda ko'mak beradi. Malakaviy – bitiruv ishi bugungi dostonlarning lirik epos darajasiga yetganligi, qadimiy dostonlarning turli xil ko'rinishlari yuzaga kelganligi va bularning barchasida lirik tur xususiyatlarining ustuvorligi, bugungi doston lirik “men”ning monologi bo'lib yangrayotganligi, unda xalq psixologiyasi bosh mavzu bo'lib kelayotganligi singari qator natijalarni dalillagani bilan ahamiyatlidir.

I BOB.

Zamonaviy dostonlarning shakliy rang-barangligi.

Poemachilikda folklor janrlariga murojaat qilishning muhim jihatlaridan biri unga badiiy-estetik mazmunning yuklanishi bilan bogliq. Ma'lumki, she'riyatimizda bu alohida adabiy hodisaga, tendensiyaga aylangan. Poema bilan she'rning o'ziga yarasha poetik imkoniyatlari mavjud. She'r poemadan hajman kichik bo'lgani bois epik miqyosga va mazmunga ega bo'lgan voqyeabandlikka asoslanmaydi. Shuning uchun lirik asarlarda ertak, afsona sujetidan ko'ra ularga xos obrazlar, epik uslubiy birliklarga keltirilishi mumkin. Ba'zida esa she'r tarkibiga xalq qo'shiqlaridan ayrim misralar kiritiladi. Bunda ular yo tazmin, yo iqtibos vazifasini o'taydi. Poema esa hajman yirik asar bo'lgani bois unda ijodkor iste'dodining epik jihatlarini kengroq namoyon bo'ladi. Unda shoir ertak, afsona, rivoyat sujetini to'liq she'rga solgan holda ifodalashi mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek poemachiligida folklor asarlaridan foydalanish yanada kuchaydi. Shoirlar shu yo'l bilan xalq qalbida yashirinib yotgan ijtimoiy dardlarni aytishga intildilar. Bu adabiyotshunosligimizda stilizatsiya hodisasi deb yuritiladi. Rus olimi V.Ye.Xalizev stilizatsiyani muallifning o'tmishda yaratilgan badiiy so'z san'ati uslubidan, ko'rinishlaridan foydalangan holda aniq va qat'iy tarzda qayta yaratishi, deya baholaydi⁴.

Haqiqatan, davr poemachiligida bu jarayon folklor bilan aloqadorlikda namoyon bo'ldi. Chunki shoirlar xalq og'zaki ijodining epik janrlari: afsona, rivoyat, naqldan foydalanish asosida badiiy tasvirni yangilashga erishdilar. Natijada adabiyotimizda afsonalar, rivoyatlar, naqlar asosida qurilgan poemalarining o'ziga xos tizimi vujudga keldi. Jumladan, Mirmuhsinning "Shiroq", A.Muxtorning "Dol qoya", E.Vohidovning "Ruhlar isyoni", A.Oripovning "Hakim va ajal", "Ranjkom", O.Matjonning "Haqqush qichqirig'i", X.Davronning "Vatan haqida yetti rivoyat", O.Hojiyevaning "Najot", A.Suyunning "Beshbarmoq", U.Qo'chqorning "Shiroq", I.Otamurodning "Yobondagi yolg'iz

⁴ Хализев В.Е. Теория литературы. -М.: Высшая школа, 1999й.

daraxt", Q.Rahimboyevaning "Qishning oxirlari", A.Qutbiddinning "Ibtido xatosi" singari poemalar shu yo'ldagi jiddiy izlanishlar sifatida ko'zga tashlanadi. Ularda afsona va rivoyatlar, M.Amilovaning yozishicha: "zamonaviy hayot ma'naviy boyligining tarixiy ildizlarini ochishga, eng yaxshi xalqchil axloqiy fazilatlarning o'zaro bog'liqligi va manguligini ko'rsatishga yordam berdi"⁵

Demak, xalq og'zaki ijodi janrlari, obrazlari, motivlaridan foydalanish XX asrning ikkinchi yarmi uzbek poemachiligida yetakchi ten-densiyaga aylanganligini ko'rsatadi. Mazkur jarayon sinkretik janr-larning vujudga kelishi va taraqqiy etishida asosiy zamin vazifasini o'tadi.

XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek poemalari badiiy strukturasi xalq afsonalari muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, "To'maris", "Shiroq", "Zariadr va Odatida" kabi rivoyatlar, "Qirqqiztosh", "Xo'ja Is'hoq g'ori" singari afsonalarda To'maris, Shiroq, Zariadr kabi xalq qahramonlarining elu – yurt mustaqilligi va ozodligi uchun olib borgan kurashlari haqida so'zlanadi. Davr poemachiligida mustamlaka iskanjasiga tushib qolgan, xo'rlangan elu - yurtimizni asrab-avaylashga da'vat etish g'oyasi kuchaydi; afsona, rivoyatlar shakli va mazmunida, qolaversa, obrazlari asosida asarlar yaratishga ma'naviy ehtiyoj paydo bo'ldi. Xo'sh, nima uchun aynan poemachilikda rivoyat, afsonalarga ko'proq murojaat qilindi? Sababi, doston xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotimizning yirik liro-epik janri hisoblanadi. Unda ijodkor qahramon kechmishlarini to'liq va batafsil bayon etish imkoniga ega. Shuningdek, dostonda ijodkorning ichki his-kechinmalari hayotning keng manzaralariga bog'lab, chuqur tahlil qilinadi. Shu bois o'zbek poemachiligida afsona va rivoyatlardan keng istifoda etilganligi ko'zga tashlanadi.

Demak, XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek poemachiligining rivojlanish xususiyatlaridan biri liro-epik asarlar badiiy tizimiga, ichki tarkibiga rivoyat, afsona, ertak va naqlar sujetlarining singdirshidir. Bunda poemalar badiiy qurilishida ijtimoiy-falsafiy, estetik-ma'rifiy vazifalarni bajarib keladi. Ko'pincha ulardan kompozitsion ko'rinish, kompozitsion vosita sifatida ko'proq

⁵ Амилова М. Узбек совет адабиётида фольклор аънаналари. -Т.: Фан, 1990й,107-6.

foydalanilganligi kuzatiladi. Binobarin, rivoyat, afsona va naqlarning poemalar tarkibiga olib kirilishi turli badiiy vazifalarni ado etadi.

Demak, poema mazmuni ifoda etilgan shakl yoxud poema tarkibiga kiritilgan folklor materialining epik mazmundorligi hisobiga badiiylikni, estetik ta'sirchanlikni oshirishga, axloqiy-ta'limiy mazmuni o'ziga xos shaklda kuchaytirib ifodalashga xizmat qiladi. Keyingi yillar o'zbek poemachiligi badiiy qurilishidagi kompozitsion yangilanish ko'proq shu bilan belgilanadi.

Afsonalar poemalar tarkibiga kiritilganda nafaqat ijodkorning g'oyaviy-badiiy niyatini yuzaga chiqarishga, balki asarning tasvir usulini belgilashga ham xizmat ko'rsatadi. Shuningdek, u orqali asarning milliy ruhi yanada ortadi.

Chunonchi, Omon Matjonning "Haqqush qichqirig'i" poemasida qirq afsonadan foydalanib, asar mustaqil kichik-kichik qismlarga, sujet yo'nalishlariga solingan. Shuning uchun shoir bu asarini «Qirq afsona» deb ham ataydi. I.Otamurodning "Yobondagi yolg'iz daraxt" poemasida yolgiz daraxt haqidagi afsona mazmuni asosida asarning falsafiy ruhi kuchaytirilgan. A.Suyunning "Beshbarmoq" asarida shu nomdagi qoyaning kelib chiqishi haqida xalq o'rtasida tarqalgan afsona sujetidan kiritma voqya sifatida foydalanilgan. Shuning uchun bu afsona kompozitsion vosita vazifasini bajargan. O.Hojiyevaning "Najot" dostonida zamonaviy voqelik afsona usulida aks ettirilgan.

Folklor asarlarining badiiy asar matniga olib kirilishi ikki xil vazifani bajaradi:

1. Kompozitsion vosita rolini ado etadi.
2. Kompozitsion usul vazifasida keladi.

Afsona, rivoyat, ertaklarning poema strukturasi kiritilishi liro-epik janr takomilida yetakchi tendensiyalardan biriga aylangan. Binobarin, xalq og'zaki ijodi janrlarining yozma adabiyot asarlari kompozitsiyasidan o'rin olishi milliy hayot manzaralarini kengroq ifodalash, ularga yanada teran mazmun yuklash imkonini beradi.

Ma'lumki, afsona xalq og'zaki ijodining qadimiy janrlaridan biri bo'lib, epik bayon shaklida yaratiladi. Ularda yurt mustaqilligi, ozodligi, erki uchun kurashgan

xalq qahramonlarining jasorati haqida hikoya qilinadi. Bugungi poemachilik sahifalariga nazar tashlansa, shoirlar afsonaga tez-tez murojfaat etayotganliklarini kuzatish mumkin. Buning sabablari nimada? Avvalo, ijtimoiy voqelik shunday ma'naviy ehtiyojni vujudga keltirdi. Qolaversa, sobiq tuzum davrida poetik fikrni oshkora aytish imkoniyati bo'lmagan. Ijodkorlar esa xalqning dilidagi ijtimoiy dardlarni, ularning tuyg'u-kechinmalarini o'z asarlarida aks ettirishlari kerak edi. Mana shunday sharoitda afsona ularga ko'makka keldi. Shoirlar xalqimiz qalbida yashirinib yotgan dardlarni shu yo'l bilan ifoda etdilar.

Poemalar badiiy strukturasi afsonalar mazmunining olib kirilishida ikki xil holat kuzatiladi. Birinchidan, ayrim poemalarning boshdan-oyoq afsonalar asosida qurilganligi; ikkinchidan, ular tarkibiga afsonalar olib kirilganligidir.

Asarning bosh qahramonlari nevara va bobodir. Unda hikoya qilinishicha, nevara keksa bobosini ajdodlar udumiga ko'ra Dol qoyadan uloqtirib, o'zi yana qabilasiga qaytishi kerak bo'ladi. Bunda poemalar badiiy qurilishida ijtimoiy-falsafiy, estetik-ma'rifiy vazifalarni bajarib keladi. Ko'pincha ulardan kompozitsion ko'rinish, kompozitsion vosita sifatida ko'proq foydalanilganligi kuzatiladi. Binobarin, rivoyat, afsona va naqlarning poemalar tarkibiga olib kirilishi turli badiiy vazifalarni ado etadi. Mirmuhsinning "Shiroq", Asqad Muxtorning "Dol qoya", A.Oripovning "Hakim va ajal", Xurshid Davronning "Vatan haqida yetti rivoyat", U.Qo'chqorning "Shiroq" singari asarlari xalq rivoyatlari materiali asosida yozilgan. E.Vohidovning "Ruhlar isyoni" asarining badiiy strukturasi joy olgan "Jaholat haqida rivoyat", "Abadiyat haqida rivoyat", "Fidoiylilik haqida rivoyat", "Shoh Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat" kabilar psixologik tasvir vositasi sifatida qo'llanilgan. Shu tariqa rivoyatlar mazmunidagi tarixiylik xususiyati yorqin ifo-da etilgan. Keltirilgan rivoyatlarning tarixiylikni asoslash, undagi qahramonlarning elu yurtiga sadoqatini, fidoiyligini ta'kidlash vositasida poema qahramoni Nazrul Islomning fazilati bo'rttiriladi. Qolaversa, uning o'z ajdodlariga munosib voris ekanligi o'rnak qilib ko'rsatiladi. Ya'ni rivoyatlardagi epik qahramon bilan poema qahramoni Nazrul Islom o'rtasidagi ruhiy bog'liqlik ochib beriladi. Chunki o'z xalqining erki va ozodligi

uchun kurashgan isyonkor bengal shoiri Nazrul Islomning qalb manzaralari, ruhiy kechinmalari rivoyatlar orqali yanada yorqinlashgan.

Asqad Muxtorning "Dol qoya" poemasi bevosita afsona sujeti asosida qurilgan bo'lib, unda afsona o'z istilohiy ma'nosida qo'llangan. Insoniy qadriyatlar talqiniga bag'ishlangan bu poemada afsona falsafiy mazmunni, hayotiylikni kuchaytirishga xizmat qilgan.

Asarning bosh qahramonlari nevara va bobodir. Unda hikoya qilinishicha, nevara keksa bobosini ajdoddar udumiga ko'ra Dol qoyadan uloqtirib, o'zi yana qabilasiga qaytishi kerak bo'ladi. Shuning uchun u MING mashaqqat bilan bobosini orqasiga ortib yuqoriga tomon intiladi. Lekin shu damda uning fikri o'zgaradi:

- Bobo, qarang, osmon, xuddi shisha!

Nahot, qiynamasa bu ranglar sizni?

Nahotki shularni ko'zingiz qiysa?

Yashashni hech istamaysizmi?⁶

Tajoxuli orif san'ati orqali ifodalangan bu misralarda nevara bobosini yashashga, hayotdan zavqlanishga chorlaydi. Bobo hayotda e'tiqodli inson bo'lganligi uchun ko'hna udumga qarshi borishni o'ziga isnod deb hisoblaydi. Lekin nevara boboni odamlardan uzoqda yashirib saqlashini, asrab-avaylashini aytib, uni ko'ndirishga erishadi.

Poemada inson yuksak qadriyat sifatida ulug'lanadi va keksalar har doim ham millatning aql-zakovat chirog'i bo'lib kelganliklari bugungi kitobxonga axloqiy mazmunga ega bo'lgan afsona orqali tushuntiriladi. Ayni paytda unda afsonaga xos sehr-jodu kuzatiladi:

Derlarki, quyunlar unda sarsari,

Tunlari sharpalar yurarmish.

Mog'oraning zim-ziyo qa'ri

⁶ Мухтор А. Дол қоя. "Шарқ юлдузи", 1986 й, 6-сон, 16-6.

Odamday shivirlar, dam oh urarmish

Dol qoyadagi mog'oraning odamday shivirlashi, oh urishi odatiy hol emas. Shu orqali shoir uning xalq nazarida shunchaki oddiy qoya emas, balki g'ayrioddiylik kasb etgan makon ekanligiga urg'u beradi.

Asarning yana bir e'tiborli jihati, shoir dastlab bosh qahramonga nom bermaydi. Eski udumni buzib, bobosining hayotini saqlab qolgan nevara yillar o'tib el-yurt koriga yaraydigan farzand bo'lib yetishgandan so'ng unga Roston deb ism qo'yadi.

Poemada xudbin kishi timsolidagi tantiq shahzoda obrazi muhim o'rin tutadi. U xalqqa past nazar bilan qarab, kim tong nurini menga ko'rsatsa, uning istagini amalga oshiraman, deb shart qo'yadi. Hamma qatori Roston ham bu vazifani bajarishga kirishadi va tong nurini ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi. Shartni bajargan Rostonni shahzoda mensimaydi va unga bir "norasida" sifatida qaraydi. Lekin Rostonning chag'al urug'ini qiz solig'idan ozod qilish haqidagi istagi uni esankiratib qo'yadi. Xalqning qo'llab-quvvatlashini ko'rib, shahzoda noiloj bu istakni qabul qiladi, lekin ularga nisbatan yomonlik qilishni ko'ngliga tugadi. Bir oz vaqt o'tib shahzoda shu yovuz niyatini amalga oshiradi. Ya'ni chag'al urug'iga tegishli don-dun, g'aram, omborlarni yoqib yuboradi. Yurtda ochlik boshlanadi. Ana shu ochliqdan xalqni yana Roston qutqaradi. Shu asosda shahzodaning chag'al xalqini kulga aylantirishdan iborat xudbinona istagi amalga oshmaydi. Yurt oqsoqolining nogahon dunyodan ko'z yumishi natijasida xalq yosh Rostonni boshliq etib saylamoqchi bo'ladi. Shundagina u bu martabaga munosib emasligini, azaliy udumga qarshi borib bobosini Dol qoyadan tashlab yubormaganini, biroq xalqni kulfatlardan qutqarishda o'sha keksa va donishmand bobosi sababchi ekanligini aytadi. Demak, shoir donishmand bobo obraziga shu jihatdan alohida mazmun yuklaydi.

E'tibor berilsa, poema sujeti nihoyatda ta'sirchan va hayotiy voqelik asosiga qurilgan. Uning tub mag'zida millatning erki va ozodligi tushunchasi yotadi. Xalqning ko'p asrlik orzu-kechinmalarini baralla aytish mushkul bo'lgan o'tgan asrning 80-yillarida shoir afsonaga asoslanib, o'zining g'oyaviy-badiiy niyatini

ifoda etdi.

Poemadan Dol qoya misolida ko'hna udumlar insonning zavoliga emas, kamoliga xizmat qilishi kerak, degan hayotiy xulosa kelib chiqadi. Umuman, Asqad Muxtorning "Dol qoya" asari poemaning afsona asosida qurilgan va falsafiy-ijtimoiy mazmun bilan yo'g'rilgan o'ziga xos ko'rinishi sifatida 80-yillar o'zbek adabiyotida yorqin iz qoldirdi.

Adabiyotshunos G'. Mo'minov mazkur poema haqida mulohaza yuritarkan, shunday yozadi: "Omon Matjon o'z dostonini qirq afsona asosida quradi. Lekin bular shunchaki afsonalarni qayta hikoya qilib berish emas, balki shu afsonalar asosida yaratilgan she'rlarning mantiqida muhim hayotiy problemalar yotadi. Shoir dunyo voqealari, kishilar munosabati, ularning taqdir va qismatlari, ular zimmasidagi ma'suliyat, hayotning kichik zarralarida namoyon bo'luvchi muammolari xususida hayolga toladi, mushohada yuritadi, o'quvchini ham hayot jumboqlari haqida, kelajak haqida fikr yuritishga chaqiradi"⁷.

Haqiqatan, Omon Matjon poemasida nazm va nasr uyg'unligida yaratilgan katta-kichik hajmdagi qirq afsona zamonaviy voqelikni aks ettiradi. Ularning har biri, folklorshunos S.Mirzayeva o'rinli ta'kidlaganiday: "mustaqil sujetga ega va ular shoirning adolat, insof, poklik, e'tiqod, burch singari inson ma'naviy kamolotining asosiy sifatleri haqidagi qarashlari bilan ichki bog'lanishga ega"⁸.

Ma'lumki, afsonaning muhim xususiyati, unda voqelikning hayoliy uydirmaga tayangan holda og'zaki bayon etilishi va sehr-joduga asoslanishi bilan belgilanadi. Shu mohiyatdan kelib chiqilsa, Omon Matjonning "Haqqush qichqirig'i" dostonida afsona ikki xil:

- 1) voqelikni tasvir-lashda xalq afsonalari syujetidan foydalanish;
- 2) voqelikni afsona usulida tasvirlash ma'nosida qo'llanganligini kuzatish mumkin.

⁷ Мўминов Ф. Узбек совет адабиёти тарихида фольклорнинг роли. -Т.: Фаъ, 1985й. 112-6.

⁸ Мирзаева С. Узбек реалистик адабиётида фольклор аънаналари. -Тошкент:. Истиклол, 2005й, 77-6.

Asarga Alisher Navoiyning "Yozmoqda bu ishq jovidona, Maqsudim emas edi fasona" tarzida boshlanuvchi misralarning epigraf qilib keltirilganligidan ham ijodkorning asl maqsadini anglash qiyin emas. Zero, shoir afsonani juda ko'p o'rinlarda "libosi mavzun" tarzida qo'llagan.

Poemadagi birinchi afsona "Tabiatning ikkinchi siri" deb nomlanadi. Bundagi lirik kirish badiiy usul bo'lib, unda bahor manzarasi tasvirlanadi va shoir uni bolalar harakteriga mengzaydi. Yoxud "toshdan-toshga irg'ib, quvalashayotgan" soyni bir to'p shumtakalarga, "gullarning lov qizarib turishini" qizaloqqa o'xshatadi. Tabiatning ikkilamchi ko'rki-tarovatini mana shularda ko'radi. Shu asosda shoir afsona sujeti bayoniga kirishadi. Afsonaning qahramoni bolalardir. Qirga o'ynash uchun ketgan bolalar qaytishganida mudhish hodisaga: jona-jon qishloqlari vayron qilinganiga guvoh bo'lishadi. Xarobalar osha o'zlariga sevimli bo'lgan narsalarni, yaqin insonlarini izlagan bolalar hech narsani topolmaydilar. Bu holat "mitti qalblarga cheksiz xo'rlik, yolg'izlik tuyg'usini soldi". Shunda g'alati holat yuz beradi: "Shu payt birinchi bo'lib gapirgan eng kichkina qizaloq yana gapirdi: - Oyijonim aytgan edilarki, bo'ying o'sib anavi qizil gulimizga tenglashib qoldi. Endi o'sha gul ham yo'q... Biram o'sha gulga aylanib qolgim kelyaptiki... Birdan mo'jiza yuz berdi. Qizaloq qizil gulga aylanib qoldi"⁹. Buni ko'rib bir bola ham o'z istaklarini aytadi. U ham soyga aylanib ketadi. Uchinchi bola buni ko'rib qishlog'ida qayta hayot tiklanishini so'raydi va boyagi "toshqin soy bo'yida chinorlar, uylar, bog'lar, qushlar paydo bo'ladi. Chollar, otalar, xotinlar ko'rinadi".

E'tibor berilsa, bunda afsonaga xos muhim jihat - voqelikning sehr-jodu asosida ifoda etilishi ko'zga tashlanadi. Ya'ni, xarobaga aylangan makonda qizil gul, toshqin soy, chinorlar, uylar, bog'larning bir zumda paydo bo'lishi, odamning boshqa ko'rinishga evrilishi mo'jizali holatdir. Demak, bunda afsona atamasi o'zini oqlagan.

Dostondagi ikkinchi afsona "Hevoq afsonasi" deb nomlanadi. U mazmunan toponimik afsonalar sirasiga kiradi. Chunki unda joy nomi - Xivanning kelib

⁹ Matjon O. Xakkuush qichqirigi. -T.: F.Fulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979й, 8-б .

chiqishi izohlangan. Uning mazmuni Nuh to'foni haqidagi afsonalar sujeti bilan bog'langan. Nuh kemasi yo'lga tushadi va yer ko'rina boshlaydi. Shunda: Kemadagi jonlarga Nuh: "Hey! Boq! Depti. Ana, yer! O'sha yerdan boshlanajak Hamma uchun ona yer!

Nuh va uning kemasi kelib tushgan zamin "Hey, boq" deb atala boshlagan ekan. Bu so'z davrlar osha fonetik o'zgarishlarga uchrab, Xiva shaklini olgan deyiladi.

"Ikki gul" deb nomlangan afsona professor I.Mo'minovga bag'ishlangan. Undagi birinchi gul, ikkinchi gul, buloq obrazlari ramziy ma'no tashiydi. Suvli, bog'li shahar tomon yo'l olayotgan birinchi gul jaziramada yo'lida uchragan buloqlardan tashnaligini qondirmiqchi bo'lganida ular yaprog'idan tashlab ketishini so'raydilar. Lekin birinchi gul baxilligi tufayli ularga yaprog'idan bermaydi va natijada manzilga yetay deganda so'lib qoladi. Shahar tomon yo'lga chiqqan ikkinchi gul esa yo'lida uchragan buloqlardan tashnaligini qondirish barobarida ularga yaprog'idan bittadan tashlab ketaveradi.

E'tibor qilinsa, afsonada birinchi va ikkinchi gul obrazlari kontrast qo'yilgan. Birinchi gul baxilligi tufayli qurib qoladi. Ikkinchi gul saxiylik qilib, yo'lida uchragan buloqqa bargidan berib, suvidan qonib ketavergan. Natijada uzilgan barg o'rniga suv ichgani tufayli yangi barglar chiqib, gul yanada go'zallasha borgan. Aslida bu afsona ramziy-falsafiy mazmun tashiydi. Shoir katta olim Ibrohim Mo'minovni ikkinchi gulga qiyos etadi. Chunki bugun O'zbekistonning faxriga aylangan I.Mo'minov o'z vaqtida bilim chashmalaridan ko'plab ilm ahlini bahramand etgan edi.

Ko'rinadiki, afsona shoirga poetik fikrni falsafiy yo'sinda ifodalash imkonini bergan va shu asosda Omon Matjon dostonida tasvirlagan voqelik zamonaviy mohiyat kasb eta borgan.

"Odamning yoshi" deb nomlangan afsona ham o'ziga xos mazmuni bilan ajralib turadi. Unda Tabiat boboning bor jonzotni jamlab, hammasiga birdek xizmat va mavqe berishi hamda ularga qirq yoshni belgilashi xususida hikoya qilinadi. Tabiat bobo, eshak, it, odam obrazlari orqali umr va uning mazmuni

xususida fikr yuritiladi.

Qirq yosh eshak va itga to'g'ri kelmaydi. Shu bois ular Tabiat boboga arz qiladilar. Biroq insonga qirq yil umr ozlik qiladi. Chunki:

Qirq yosh - eng zo'r yosh ekan,

Ong — tiniq, kuch — chosh ekan.

Pekin andak tashvish ko'p,

Umr — chop-chop, shosh ekan.

Hali uyim bitmadi,

Yig'in-to'yim bitmadi.

Orzu-o'yim bitmadi.

Shu asosda Tabiat bobo mulohaza qilib, eshak, itdan ortgan umrni odamga beradi.

Ko'rinadiki, hayotiy voqyelik bunda afsona yo'sinida tasvirlangan. Bu usul ijodkorga inson umri haqida falsafiy xulosalar chiqarish imkonini bergan.

"Alla" deb nomlangan afsona shoir g'oyaviy maqsadini yorqinroq ifoda etishga ko'makka kelgan. Ma'lumki, alla eng qadimgi qo'shiqdir. Uning ohangida bola uxlab, orom oladi. Allada onaning farzandiga bo'lgan cheksiz muhabbati aks etadi. Bu muhabbat Vatanga, yaqinlarga muhabbat tarzida jaranglaydi.

Afsonada Navro'z sayli va uch dugona - Roziya, Robiya, Guljon taqdiri haqida hikoya qilinadi. Shu saylda xorijlik mato sotuvchi yigitning ishqiy Roziyaga tushadi. Qizning oilasi uni noiloj xorijlik yigitga uzatishadi. Onasi qiziga baxt tilar ekan, shunday deydi: "Jon bolam, sog' bo'l, salomat bo'l. Baxtli bo'l. Bitta o'tinchim: bola ko'rsang ularning hech biriga alla aytma! Aytsang, sendan butun umr norozi ketaman...". Roziya o'zga yurtda ketma-ket ikki o'g'il ko'radi. Roziya onasining o'tinchini yodida saqlab, biror marta go'daklariga alla aytmaydi. Ikki o'g'il ham ko'p yashamaydi. Eri Roziyaning farzandlariga biror marta ham alla aytmaganini biladi. Uchinchi o'g'li dunyoga kelgandan so'ng ham Roziya unga alla aytmaydi. Bola betob bo'lgan paytda "eri dahshatli qiyofada hayqirdi: - Qanday onasan o'zi?! Mehr degan narsa bormi senda ham? Bir alla aytib, bag'ringga bossang-chi sho'rlikni?! Alla ayt", - deydi. Roziya alla aytay desa,

onasi taqiqlagan, aytmay desa gulday bolasi ko'z oldida so'lib boryapti. U onasining o'tinchlarini ham unutib, go'dagini bag'riga bosib alla ayta boshlaydi. Shundan so'ng bola orom olib uxlab qoladi va sekin-asta tuzala boshlaydi. Roziya endi har kun alla aytadi. Alla ohanglari orqali yaqinlari: ota-onasi, ukalari, dugonalarini eslab, ularni sog'inganini his etadi, qishlog'i manzaralari ko'z o'ngiga keladi. Bora-bora bu sog'inch ulkan bir dardga aylanadi. Yurtiga boray desa, zamon notinch, Gurlan va u yashayotgan mamlakat orasida qattiq janglar ketmoqda edi.

Haqiqatan, asarda tasvir etilgan voqea nihoyatda ta'sirchan. Xo'sh, nega ona qizidan alla kuylamasligini so'radi. Afsonadagi badiiy lavhalar bu savolga javob beradi. Zero, alla inson qalbiga Vatan degan muqaddas tuyg'uni singdiradi. Chunki vatan deganda, avvalo, tug'ilib o'sgan yurt gavdalanadi. Unda esa ota-ona, aka-ukalar, yaqin insonlar istiqomat qilishadi. Ona aslida "uzoq yurtda bolam sog'inchda o'rtnmasin" deb, qizidan alla kuylamasligini iltimos qilgan bo'ladi.

Poemadagi boshqa afsonalar ham o'ziga xos mazmunga ega. "Haqqush qichqirig'i" insonlarning tinch va osoyishta hayot kechirishlari mohiyatini ochishga qaratilgan. Agar Haqqush "haqq" degan ovozi eshitilsa (uni na ko'rib bo'ladi, na bilib), odamlar xursand bo'lishar ekan. Chunki bu sado tinch-xotirjam yashashga ishora ekan. Shu voqelik vositasida shoir Haqqush ovozidagi g'ayrioddiy kuchning qudratini, xalqning unga ishonchini ifodalab bergan.

Asardagi "Komil Xorazmiyning sulh tuzishni so'ragani", "Bir Xiva - ikki qal'a", "Gurlan degan joyning nomi", "O'n uchinchi eshik" singari afsonalar tarix sahifalaridan so'zlaydi.

Umuman, "Haqqush qichqirig'i" Omon Matjonning poemachilikdagi butunlay yangicha izlanishlari mahsuli sifatida ahamiyatli. U afsonalar sujetini qayta badiiy ishlab, xalqimizning ming asrlik orzu-kechinmalarini qalamga oladi, qadim yurt tarixiga oid manzaralarni g'oyatda jonli va real tasvirlaydi.

Poemadagi afsonalarning ko'pchiligida janr tabiatidan kelib chiqib yondashilganligi seziladi. Chunki ularda voqelikning hayoliy uydirma vositasida, sehr-joduga asoslangan holda ifoda etilishi kuzatiladi. Shoir afsonalarda

"hayotning eng kichik zarralarida namoyon bo'luvchi" (G'.Mo'minov) serko'lam hayotni ko'radi. Shuning uchun bo'lsa kerak, shoir ularning barchasini bir nom bilan ataydi. Xuddi ana shu xususiyatlariga ko'ra dostonni afsonalar asosida surilgan asarlar qatoriga kiritish mumkin.

Oydin Hojiyevaning buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligiga bag'ishlab yozgan "Najot" dostoni¹⁰ ham yetti fasonadan iborat. Shoira shaxsga sig'inishning mash'um oqibatlarini, urush, turg'unlik yillarining ayanchli manzaralarini, maqsadsiz afg'on urushi fojialarini afsona orqali tasvirlagan. Demak, poemada zamonaviy voqelikni afsona uslubida bayon etish ko'zda tutilgan. Shoira shu yo'l bilan xalq qalbida uzoq yillardan buyon yashirinib yotgan dardlarni, uning o'kinch va alamlarini badiiy aks ettirmoqchi bo'ladi. Bu asarning "Qirqinchi quti tilsimi", "Eldan chiqqan balo", "Asorat", "Hamid Sulaymon hasrati", "Murodbaxsh bobo hikoyati", "Xatar vodiysidan afsona" kabi qismlarida fasona so'zi atama ma'nosida emas, balki o'tmishda ro'y bergan voqeliklarni afsona, ya'ni Aristotel ta'biri bilan aytganda "Haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoya". Chunki bu asarda afsona janri tabiatiga xos asosiy belgi voqelikning hayoliy uydirmaga asoslangan talqini kuzatilmaydi. Faqatgina "Bolalik bog'idan fasona" deb nomlangan birinchi qismda bu xususiyat ko'zga tashlanadi.

Poemadagi har bir afsona o'ziga xos sujet va mazmunga ega. Birinchi afsona shoiraning onasi Toshbibi Boborahmat qizidan eshitgan bir hayotiy voqea asos qilib olingan. Shoira o'z kechinmalarini garchi afsona uslubida bayon etishni maqsad qilsa-da, biroq matn tarkibida xalq dostonlariga xos kompozitsiya: nasr va nazm uyg'unligidan foydalangan. Holbuki, afsona xalq og'zaki ijodining nasriy turiga mansub janrdir. Unda epik voqelik hikoyaviy ko'rinishda bayon etilishi an'anaga aylangan. Biroq shoira o'z asarida voqelikni she'riy bayon etishga intilib, bu an'anani yangilash bilan bir qatorda yana xalq dostonlariga xos kompozitsiyani zamonaviy badiiy ijod turiga moslashtirmoqchi bo'ladi. Natijada uning bu urinishlari yangi badiiy shaklning yuzaga kelishiga olib keladi. Ma'lumki, bunday

¹⁰ Хожиева О. Кўзимнинг оку қароси. -Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996й, 286-320-6.

urinishlar XX asr she'riyatida o'ziga xos uslubiy yo'nalishga aylangan; alohida tamoyilni tashkil etadi.

Asarda O.Hojiyeva dastlab o'zi tug'ilib o'sgan Ro'zibiyon qishlog'ini o'zgacha bir muhabbat bilan tasvirlaydi va u bilan bog'liq voqealarni entikib eslaydi. Shulardan biri Xizr va naqshinkor darvoza haqidagi g'amli hikoyadir. Unda tasvirlanishicha, qishloqdagi bolalar "oq libosli, soqoli ko'ksiga tushgan" afsonaviy Xizr boboni doimiy kutib yashaydilar. Lekin maktabi, masjidi, madrasasi bo'lmagan qishloqqa qanday qilib Xizr bobo kelsin?! Bir kuni qishloqdagi fayzu barakali naqshinkor darvozasi bor hovli oldida nogahon "bir bechora juldur chopon, oyoq yalang, yoqasi chok" chol paydo bo'lib, bir ko'rinish beradi-yu, ko'zdan g'oyib bo'ladi. Shundan so'ng u boshqa qaytib kelmaydi. Xo'sh, nima uchun bu g'aroyib chol aynan naqshinkor darvozali hovli oldida paydo bo'ldi? Yana nega u juldur kiyimda? Axir, u Xizr bobo bo'lsa, oq libosda, uzun soqolli bo'lishi kerak edi-ku!

Bechorahol ko'rinishdagi g'aroyib chol tashrifidan so'ng naqshinkor darvozali uydan fayzu-baraka ko'tarilib, xonadon egalari boshiga og'ir kulfat tushadi. Demak, asarda juldur kiyimli notanish cholning kelishi xonadon boshiga tushajak falokatdan ogohlantirishdir. Ayni paytda uning bu badiiy vazifasi afsonaviy Xizr obrazi vazifasiga parallel olinganligini sezish qiyin emas. Xususan, bu ularning kutilmaganda paydo bo'lib, ro'y berishi mumkin bo'lgan voqelik haqida oldindan ogoh etishida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, xalq afsonalarida aks etgan voqelikda hayoliy uydirmadan hamda fantastik va mifologik obrazlardan foydalaniladi. Bunda ham Xizrga o'xshagan boboning bir ko'rinish berishi aslida mo'jizaviy holatdir. Shunga e'tibor qaratilsa, shoironing o'z asarini fasona deb atashi sababini anglash mumkin. Sho'rolar davrida xalqning milliy qadriyatlarini toptash, ularni yo'q qilish mana shu tarzda boshlandi. Aslida bu ma'naviy qatag'ondan darak berardi. Zero, bugun bunday voqealar o'tmish va tarixga aylanib ulgurdi.

Ikkinchi afsona ham mantiqan birinchi afsonaga yaqindir. "Qirqinchi quti tilsimi" deb atalgan bu qismda mohiyatan shunga o'xshash boshqa bir

ayanchli holat tasvir etilgan. Ma'lumki, shaxsga sig'inish yillarida arab imlosida bitilgan ko'plab durdona asarlar yoqib yuborildi. Ushbu afsona Zarmitan qishlog'ida bo'lib o'tgan xuddi shunday voqealardan so'zlaydi. Afsonaning bosh qahramoni yosh qizcha va Mavlavixonidir. Arabchada bitilgan kitoblar yondirilayotgan bir paytda Mavlavixon juda ko'p noyob kitoblarni ko'madi. Lekin Alisher Navoiyning devonini "dafn" etarga jur'at topmaydi" va qizchaga tuguncha qilib beradi. U Sho'ravot qishlog'i tomon yo'l oladi va soyga duch keladi. Ko'prik o'rnida yog'och nov bo'lib, undan o'tish mushkul edi: Norasida xo'rsindi xomush, aqli yetmay biror tadbirga, "Alhamdu"ni aytdi faromush.

"Alhamdu" deyilganda "Fotiha"surasi nazarda tutilmoqda. Shu o'rinda shoira ertaklarga xos an'anaviy motivlardan biri mushkul vaziyatlarda bosh qahramonga qushlar, hayvonlarning ko'mak berishi voqeasini doston sujetiga singdirishga urinadi. Qizchaga novdan o'tishda tovushqon, to'rg'aylar yordam beradilar.

Va tovushqon bulutday to'zib,

O'rnida oq kalava qoldi.

Va chuvalib-chuvalib nogoh,

Salla kabi yoyildi paqqos.

Nov ustiga to'shaldi oppoq.

Tolalardan uzun poyandoz. To'rg'aylar poyandozni tumshug'iga tishlab, ikki yog'idan ushlab turishadi va shu tariqa qizcha soydan o'tib oladi. U haligi tugunchani Sho'ravotning bog'boni Farmon boboga topshiradi. Farmon bobo kitobni "bog' to'rida nazardan nihon qirqinchi bol qutiga soladi". Shu yo'l bilan Navoiyning devonini asrab qoladilar. Har safar asal yig'ish mavsumida oxirgi quti ochilmas edi. Farmon bobo:

— Hazratimning o'lmas so'zlari

Behroq asalari sutidan, — deydi.

Ko'rinadiki, ikkinchi afsona ham hayotiy voqelik asosida qurilgan. Ammo xalq afsonalari hayotiy voqelik emas, hayoliy uydirma asosida yaratiladi. Shuning

uchun shoira o'z asarlarini garchi fasona deb atagan bo'lsa-da, aslida buni istilohiy ma'noda qo'llamaganligini anglash kerak.

Shoironing "Eldan chiqqan balo" deb nomlangan afsonasi ham kitoblar qatag'onidan so'zlaydi. Unda mumtoz badiiy asarlar bilan diniy kitoblarning yoqib tashlanishi voqealari bayon etiladi.

Shoira qalamga olgan dahshatlar shaxsga sig'inish davrida boshlanayotgan qatag'onning bir lavhasi, xolos. Lekin bu qatag'on faqat kitoblarni yoqish, odamlarni badnom qilish bilan intiho topmagan, u avj olib borgan. Jumladan, dostonning "Asorat" deb nomlangan qismida milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizning yo'qotilishi bilan bog'liq voqealar ifoda etilgan. Unda shoira qishloqdagi kelinsalom udumini tasvirlaydi. Shundan kelib chiqib, doston kompozitsiyasiga kelinsalom qo'shiqlari kiritiladi. Natijada dostonning milliylik ruhi kuchayib, xalqchilligi yanada oshadi.

Asarda Norbo'ta raisning xalqning milliy marosimlarini ("Kelinsalom") o'tkazgani uchun partiyadan o'chirilishi va o'z yurtidan Bekovot cho'llariga surgun etilishi real tasvirlanadi. Shoira e'tiqodi, iymoni butun Norbo'ta rais timsolida xalq dunyoqarashini ifoda etgan.

Shaxsga sig'inish yillarida, xususan, xalq orasidan yetishib chiqqan millat fidoyilarini, ziyolilarini qatag'on qilish avj oldi. Beshinchi afsona xuddi shu fojia haqida so'zlaydi. "Hamid Sulaymon hasrati" deb nomlangan bu qismda navoiyshunos olim, zukko muallim Hamid Sulaymonning ayanchli qismati hikoya qilinadi. U imtihon varaqalarini o'zbek tilida tuzgani uchun "millatchilik"da ayblanadi va qamoqqa olinadi.

Insonlikning tahqirlanishini shoira qatag'on qilingan millat fidoyilari qamalgan qamoqxonalar misolida reallashtiradi. Mana shunday jirkanch muhitda xalqning asl farzandlari chidam va matonat bilan yillab yashaganligini shoira Hamid Sulaymonning achchiq qismati orqali tasvirlab beradi. Aslida o'sha yillarda ko'plab ziyolilarimizning taqdiri mana shu tarzda yakun topgan. Asarning lirik chekinish qismi shoironing oh-u afg'oni yanglig' yangraydi:

Gul elim, jambil elim,

Sag'iru sabil elim,
O'z o'g'liga "Yoriltosh"
Bo'lolmagan qul elim...

Ma'lumki, xalq orasida "Yoriltosh" ertagi ancha mashhur. Unda tilsim tosh yomonlardan himoya qiluvchi magik vosita ma'nosida talqin qilinadi. Shoira "Yoriltosh"ni talmeh qilib keltirar ekan, unga juda katta mazmun yuklaydi. Ya'ni, Hamid Sulaymonga o'xshagan millat fidoyilarini xalq hech bo'lmasa "Yoriltosh"chalik ham himoya qilolmadi, degan o'kinch shoira qalbini vayron qiladi.

Bu afsona asar kompozitsiyasini boshqa afsonalar bilan bog'lashga xizmat qilgan. Chunki shoiraning g'oyaviy-badiiy niyati turli yillarda sodir bo'lgan hayotiy voqealardan eng xarakterlilarini tanlab, o'shalar vositasida davrning manzaralarini yaratishdan iborat bo'lgan. Shu jihatdan Hamid Sulaymon haqidagi fasona tarixiy voqelik doston kompozitsiyasiga yaxlitlik baxsh etgan.

Asar kompozitsiyasiga e'tibor berilsa, afsonalar mazmuni bir-birini to'ldirib, izchillik kasb eta borgan. "Murodbaxsh bobo hikoyati" oltinchi afsona bo'lib, unda turg'unlik yillari fojialari aks etgan. Shoira olti afsona orqali qatag'on degan balo, turg'unlik zamoni nafaqat insonlarni zaharladi, balki u yashab turgan zaminga, millat hayotiga ham og'u soldi, degan xulosaga keladi. Adabiyotimizda o'tgan asrning 80-yillaridagi maqsadsiz afg'on urushi mavzusida she'r bitmagan, asar yozmagan ijodkor yo'q hisob. Oydin Hojiyeva ham dostonining "Xatar vodiysidan fasona" nomli qismini shu fojeaga bag'ishladi.

Alisher Navoiy - Hirot farzandi. Hirot esa Afg'onistonda joylashgan. "Ajal quzg'unlari navqiron yigitlarga changal urganda, ulug' shoir go'rida tikka turdi". Chunki bunday xunrezliklar uning yurtida sodir bo'layotgan edi. Shu bois shoira Navoiy ruhini so'zlatadi:

Jayxun suvlariga ne boshlar oqdi,
Suvrati, siyrati quyoshlar oqdi.
Xasu – xashak bo'ldi, bardoshlar oqdi,

Sanasam adashur sanog'im mening!

Qanday chidash berding, bunga Hayraton,

O'tdi kun qamalgan tobutlar hayron.

Dalva-dalva tanlar o'tdi laxta qon,

Quloq-burni kesik Shirog'im mening.

Umuman, O.Hojiyeva yurtimiz va xalqimiz tarixiy taqdiriga aloqador yaqin o'tmish lavhalarini bir-bir hayolidan o'tkazib, afsonalar zanjiridan tashkil topgan yaxlit doston yaratgan. Ular mantiqan bir-biri bilan bog'lanib, qatag'on davri va turg'unlik yillari fojialarini, afg'on urushi oqibatlarini badiiy aks ettiradi. Shuning natijasida o'quvchi ko'z o'ngida ko'klarga ko'tarilgan sobiq tuzumning dahshatli qiyofasi yorqin namoyon bo'ladi. Shu o'rinda savol tug'iladi: nega shoira voqelikni tasvirlashda afsonani tanladi?

1. Epik bayon afsonaga xos. Har bir afsona mustaqil sujetga ega.

2. Afsonalar hayotdan, voqelikdan so'zlaydi. Shoira afsonalarida ham o'tmishimiz voqeligi o'z aksini topgan.

Demak, asarda tasvir etilgan qatag'onning turli shakllari, turg'unlik yillari fojealari, afg'on urushi oqibatlari – bularning barchasida xalqimizning o'tmishdagi ayanchli qismati yotadi.

"Najot" poemasi o'tgan asrning 90-yillari poemachiligida alohida hodisadir. O.Hojiyeva "Najot" dostonida o'z hayolidan kechgan voqeliklarni bayon etgani uchun badiiy tasvirda afsonani "libosi mavzun" sifatida qo'llagan. Dostonda yaxlit sujet chizig'i mavjud emas, u kichik-kichik epizodlar tizimidan tashkil topgan. Bu epizodlar shoiraning yagona g'oyaviy maqsadini – shaxsga sig'inish va turg'unlik yillari voqeligini bor bo'yicha badiiy tasvirlashga qaratilgan.

A.Suyuining "Beshbarmoq", I.Otamurodning "Yobondagi yolg'iz daraxt", R.Musurmonning "Ruh nasibasi" kabi poemalarida afsonalar kompozitsion vazifani bajarishga xizmat qilgan. "Beshbarmoq" liro-epik poemasida yagona sujet chizig'i va kompozitsion yaxlitlik mavjud. Sobit ota poemaning bosh qahramonidir. Asarda bayon qilinishicha, Sobit ota dunyodan ko'z yumgach,

uning jasadini qabristonga emas, Beshbarmoq qoyasiga dafn etishadi. Chunki Sobit ota o'limidan oldin qavmdoshlariga shuni vasiyat qilgan edi. Shoir buning sababini izohlash uchun poema kompozitsiyasini afsona qolipiga moslashtiradi. Bu afsonani bir vaqtlar Sobit ota aytib bergan bo'ladi. Unda "Beshbarmoq" nomining kelib chiqishi izohlanadi.

Afsonada hikoya qilinishicha, kichik bir elat boshiga ofat yog'iladi. Bu ofatni daf qilish uchun qavm bahodirlari ko'p bosh qotiradilar. Nihoyat, ular o'ylab – o'ylab, elatni ovuldan uzoqlashtirish rejasini tuzadilar. Xullas, elatga yov bosib keladi va besh bahodir jangga kirishadi.

Besh bahodir ham darhol,
Chiqar qoplon misol.
Jang boshlanar beomon,
Qilich serpar besh o'g'lon.
Besanoq uchar boshlar,
Tog'dan ko'chganday toshlar.
Qonlar oqar daryoda,
O'lik qotar bo'yraday¹¹.

Shoir poetik fikrni obrazli ifodalash maqsadida tashbehdan samarali foydalangan. Binobarin, besh o'g'lon qoplonga mengzalgan. Ular mardlik bilan jang qilib, dushmanning ko'pchiligini yer tishlatadi. Son-sanoqsiz uchgan boshlar tog'dan ko'chgan toshlarga, to'kilgan qonlar esa daryoga qiyoslanadi. O'liklarning terib qo'yilishi bo'yraning qatorlariga o'xshatiladi. Bu tasvirlar besh o'g'lon jasoratini ifodalashga xizmat qilgan, albatta. Yovning soni nihoyatda ko'p bo'lganidan ularning yengilishi tayin edi. Shuning uchun besh pahlavon o'zlari bilgan sirli dara tomonga chekinadilar:

Shunda yetishar ana,
Qizg'in yovlar ham, mana.
Ammo birdan besh o'g'lon,

¹¹ Суюн А. Куйганим — суйганим. -Т.: Ф. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991й, 98-б.

Daraga o'zni shu on
Tashlashar! Hayhot shu tob,
Gumburlab ketar tosh-tog' ...
Dara o'rnida mag' rur,
Besho'g'lon— qoya turar¹²

Bunda afsonaga xos mo'jizaviylik xususiyati mavjud. Ushbu toponimik afsona Beshbarmaq qoyaning kelib chiqish tarixidan so'zlaydi. Ko'rinadiki, besh o'g'lonning fidoiyligi asrlar osha ko'pchilikka ibrat namunasi bo'lib kelgan. Sobit ota ham bu afsonani aslida bobosidan eshitgan. Folklor unsurlarining badiiy adabiyot asarlari tarkibidan o'rin olishi haqida adabiyotshunos Sh.Murodov shunday yozadi: "H.Sharipov, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon va boshqalar o'z asarlarida an'anaviy miqlar, rivoyatlar, afsonalar, ertaklar, masallardan ijodiy foydalanib, shu yo'l bilan badiiy ishonarli va mazmunli asarlar yaratdilar, janrning yangi imkoniyatlarini ochdilar"¹³. Zero, poema tarkibidagi afsona shoirga poetik fikrni va epik mazmunni ochib berishda ko'makka kelgan. Bu esa asarda milliylikni ta'minlashdan tashqari uning kompozitsiyasida ham o'z o'rniga ega. Afsona orqali shoir kitobxonga Vatan degan muqaddas tushunchaning mohiyatini chuqurroq anglatishga harakat qilgan.

Sobit otaning o'zi ham janggohlarda besh o'g'lon holatini boshidan kechiradi. Shoir o'z qahramoni timsolida ajdodlar an'anasiga sodiq vatanparvar obrazini gavdalantirgan. Shu o'rinda bir mulohaza: shoir asarda rivoyat va afsona atamasini chalkashtirib qo'llaydi. U aslida rivoyat deya tilga olgan voqelik afsona janri tabiatiga mos keladi. Chunki afsonada hayoliy uydirma, sehr-jodu, besh o'g'lonning besh qoyaga aylanishi aks etgan. Shuning uchun bu asarni afsona kompozitsion vazifa bajargan dostonlar qatoriga kiritish mumkin.

¹² Суюн А. Куйганим — суйганим. -Т.: Ф. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991й, 98-б.

¹³ Муродов Ш. Жанровые особенности современной узбекской поэмы (на материале поэм 70-х годов). АКД. Ташкент, 1984г. С. 10.

Rustam Musurmonning "Ruh nasibasi" poemasi ham o'ziga xos kompozitsiyasi bilan o'tgan asrning 90-yillari o'zbek poemachiligida alohida o'rin tutadi. Asarga sumalakning paydo bo'lishi haqidagi xalq afsonasi singdirib yuborilgan:

Sahro... Hasan-Husan... Bibi Fotima...

Na bir qultum suv,

Na... bir tishlam non bor...

Faqat ona-bola.

Odam zoti — na?

Na biror jondor bor

Na biror jon bor¹⁴.

Bibi Fotima kimsasiz sahroda och qolgan egizaklariga qozonga "bir tutam maysayu to'rtta tosh tashlab", kechasi bilan qaynatib, bir taom pishirib beradi.

Xalq afsonasida ham hikoya qilinishicha, bir kambag'al kampir egizak bolalari och qolganiga chiday olmay, "o'tgan yilgi bug'doy poyadan bug'doy tomirlarini, endi nish ura boshlagan o't-o'lanlar terib, ularni yaxshilab yuvib" qozonga soladi va ertalabga qadar xudoga nola qilib, uni pishiradi. "Tongga yaqin ona ham kovlashdan charchab, qozonning qopqog'ini yaxshilab yopib, dimlabdida, bolalarini yoniga yonboshlab uyquga ketibdi. Ertalab bolalarining shovqinidan uyg'onib qarasa, Hasan-Husanlar qozonga qo'lchalarini tiqib, nimanidir yalashayotganmish. Mo'jiza ro'y berganidan ko'zlariga ishonmagan onaizorning o'ziyam jimjilog'i bilan qozondagi taomdan yalab ko'rsa, shirin narsa ekan"².

Doston uchun ham aynan shu voqelik asos qilib olingan. Buni shoir satrlar qatiga quyidagicha singdiradi:

...Aldadi begunoh Fotima,

O'truklashurlar, yoh, lafzlarida!

Hech ovqat bo'larmi qozonda

Maysayu to'rtta tosh - dumaloq?

¹⁴ Musurmon P. Ruh nasibasi. Doston. "Sharq yulduzi", 1994 й, 3-сон, 100-6

Yumilib ketadi azonda

Ko'zlari...

Yumalaabb...

Yumalaa-abb...

E'tibor qilinsa, asardagi voqea xalq og'zaki ijodida epik makon vazifasini o'taydigan "kimsasiz sahro"da bo'lib o'tadi. Xalqimizning qadim o'tmishiga oid bu voqea shoir lirik qahramoniga ta'sir qiladi:

Uxladim...

Havo yo'q nafas olishga

Sahro... Hasan-Husan... Bibi Fotima

Aylanar boshimda girdi kapalak

Minnatdor jilmayar Bibi Fotima —

Egizlar talashib yalar sumalak.

Uvillab yig'layman tushimda...

Bunda ham xalq epik asarlariga xos an'anaviy tush motividan foydalanilgan. Lirik qahramon o'sha qadim voqelikni tushida ko'radi. Kapalak obraziga e'tibor berilsa, u ham folklorga xos bo'lib, asarda arvoH vazifasini bajargan:

"Bibijon, och qoldim.

Bibijon, non ber!!! "

"Ko'zingni yum!"- deylar,

Yumaman...

"Ko'zingni och!" — deylar

Ochaman...

O chaman.

Ocha

Man-

Och...

Oochchch!!!

Sahrodagi holat lirik qahramon tushida gavdalanadi. Shoir poemada poetik sintaksisni o'ziga xos tarzda qo'llagan. Binobarin, dialog, ko'chirma gap va so'z o'yinidan iborat bu lavhada lirik qahramonning ruhiyati aks etgan. "Ochaman" so'zi she'riy matnda uch xil shaklda (ochaman, o chaman, ocha man) qo'llangan va mazkur shakldoshlik uch xil ma'noga ega. Ya'ni ko'zimni ochaman, chaman-gulzor, men ochman kabilar shular jumlasidandir. Bu bilan afsona qahramonining o'sha mushkul damlardagi iztiroblari aks etgan:

Ishonmayman -

Hushimda

Bibi Fotima yo'q!

Hasan-Husan yo'q!

Qo'sh qo'llab mushtlayman boshimga.

Qo'sh qo'llab mushtlayman booshimgaa!!!

Tushning so'ngida lirik qahramon afsona qahramonlarini ko'rmaydi. Haqiqatan, Husan Karbalo dashtidagi urushda, Hasan xotini bergan zahardan halok bo'ladi. Bunda tush bashoratli mazmun kasb etadi. So'nggi satrlar esa azadorlik yig'isi belgilaridir. Chunki azada ba'zi ayollar boshiga qo'shqo'llab mushtlagan tarzda yiglaydi.

Poemadagi she'riy satrlarda ta'sirchanlikni oshirish maqsadida unli va undosh tovushlar ikkilantirilgan, cho'zilgan. Bu keyingi yillar o'zbek poemachiligida yangicha usullardan biri bo'lib, lirik qahramon qalbida kechadigan tug'yonlarni yorqin aks ettirishga xizmat qiladi.

Xo'sh, shoir nima uchun bu ko'hna afsonaga murojaat etdi? Bizningcha, xalqimiz tarixining nihoyatda qadimiyligi, milliy urf-odatlarimizning uzoq asrlarga borib tutashishi kabi jihatlarni badiiy aks ettirish maqsadida shoir mazkur afsonani she'rga solgan va bugungi zamondoshimiz nigohi bilan olis moziyga teran nigoh tashlagan. Ikrom Otamurodning "Yobondagi yolg'iz daraxt" poemasida keltirilgan

afsona unga hikmatli yo'nalish bag'ishlaydi. Aytishlaricha, bir kishi cheksiz yobonga daraxt ko'chati ekadi. Daraxtning yashash uchun kurashida bir necha fasllar almashinadi. "Labi quvragan javzo" orqali yozning issiqligiga "libosini almashgan ko'klam" metaforasi bilan bahor tabiatinin go'zalligiga, "xayr etgan tiyramoh" deb esa qish sari yuz tutgan kuz holatiga ishora qilinadi. Yobondagi yolg'iz daraxt tabiat fasllarining injiqliklariga qaramay, faqat ko'karish, yasharish va yuksalish tomon intilgan.

Keyingi yillar o'zbek poemachiligi ham mazmun, ham shakl jihatidan yangilanib bormoqda. Agar yuqorida tahlil etilgan asarlarda xalq afsonalari asar badiiy strukturasi o'rin olib, turli kompozitsion vazifalarni ado etgan bo'lsa, keyingi yillarda yozilgan bir qator poemalarda afsonalar qahramonlari talmeh etib keltirilgan. Bu jihatdan Faxriyorning "Yoziq" asari e'tiborlidir. Unda bir necha afsona mazmuni va qahramonlariga ishora qilinganligi kuzatiladi. Shulardan biri "Dedal va Ikar" afsonasidir. Undagi bir lavhaga: Dedal va Ikarning osmonga uchishi voqeasiga ishora qilingan:

Dedal uchib boradi,

dedaluslar termular.

Ikar uchib boradi,

"ikaruslar" o'rmalar¹⁵.

Shoir afsonani bugunga bog'lagan, Dedal va Ikar singari afsonaviy qahramonlarga ishora qilish orqali talmeh yaratgan.

Ikkinchi afsona Iskandar Zulqarnayn haqida bo'lib, unda ham cho'ponning nay yasashi holati asos qilib olingan. Ma'lumki, Maqsud Shayxzoda aynan shu afsonaga tayanib, "Iskandar Zulqarnayn" nomli poema yaratgan edi. Faxriyor esa undagi bir motivni: cho'ponning nay yasashi epizodini asarga olib kirgan:

Yoziqlar goh sura, goh oyat

quloq tutar sichqonlar — avom.

¹⁵ Фахриср. Ёзик. Достон. "Шарк юлдузи", 1991й, 4-сон, 91-б.

Kungaboqar quloqni tunda
G'or — quduqqa tashlab yuborar.

qamish unib chiqadi undan
yorab!..

Bozinger yutgan qilich singari
quduqning bo'g'ziga qamish qadalar.

Cho'pon yo'q nay yasab olgani,

Qishloqqa qaytmadi podalar.

Afsonaga ko'ra Iskandar Zulqarnaynning boshida shoxi borligini eng so'nggi usta sartarosh bilar edi. Shuning uchun Iskandar bu sirni hech kimga aytmaslik sharti bilan unga sochini oldiradi. Sartarosh ancha muddat mazkur sirni yashirib yuradi. Biroq unga bu og'irlik qiladi. Bir kuni quduqqa Iskandarning shoxi borligini aytadi va yengil tortib, uyiga qaytadi. Yillar o'tib, quduq ko'milib, o'rnidan qamishlar o'sib chiqadi. Cho'pon o'sha qamishlardan nay yasab, uni chalishga chog'lansa, kuy o'rnida Iskandarning shoxi borligi haqidagi sado chiqadi. Faxriyor ana shu afsonaviy voqelikka ishora qiladi. Bunda g'or — quduq, cho'pon, nay singari epik makon va obrazlar aynan afsonaga xosdir.

Modernizm voqyelikni badiiy aks ettirishning o'ziga xos usuli bo'lib, unga xos muhim jihatlardan biri badiiy asarda qahramonlar ma'lum bir belgilar orqali ifoda etiladi. Faxriyor - zamonaviy modernistik adabiyotimizning yorqin vakili. Shu bois "Yoziq" dostonidagi talmehlar aslida shu usul vositasida yuzaga chiqqan. Ayni jarayon lirik poemaning mazmunini yangilashga xizmat qilgan.

Demak, tahlil etganimiz poemalarda afsonadan qoliplash usuli sifatida foydalanilgan. Bunda ular kompozitsion vosita vazifasini bajarib kelgan. Afsona poema tarkibiga butunlay singib ketmagan. Faqat u ma'lum bir g'oyaviy maqsadni ko'zlabgina poema tarkibiga kiritilgan. Ya'ni o'sha epik asar (afsona yoki rivoyat) asar kompozitsiyasida mazmunni boyityshga yoxud bosh qahramon xarakteri va ruhiyatini ochishga xizmat qilgan.

Xalq afsonalariga murojaat etish, voqelikni afsona yo'sinida tasvirlash orqali

XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek poemachiligi ham mazmun, ham shakl jihatdan boyidi. Sehr-jodu va hayoliy uydirmaga asoslangan xalq og'zaki ijodining bu qadimiy janri zamonaviy shoirlarga poetik fikrni keng, ta'sirchan qilib tasvirlash imkoniyatlarini yaratdi. Bu esa lirik va liro-epik poema badiiy strukturasi yangilanishlarni vujudga keltirdi.

Folklorning mustaqil janrlaridan biri bo'lgan naql biror sabab bilan aytiladi. Unda muhokama qilinishi zarur bo'lgan mavzu bo'lishi kerak. XX asrning ikkinchi yarmida esa bunday mavzular serob edi. Shuning uchun shoirlar naqlni badiiy shakl sifatida tanlab, o'z kechinmalarini ichki tug'yon bilan muhokama qilishga intildilar. Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni", A.Oripovning "Ranjkom" singari dostonlarida xalq naqlari muhim o'rin tutadi.

"Ruhlar isyoni" dostonida "Oliy ruhlar to'g'risida naql" keltirilgan. Bu naql ham bevosita asar qahramoni xarakterini yorqinlashtiruvchi vositaga aylangan. Chunki naqlda ruhlar ikkiga: oddiy va oliy ruhga ajratiladi. Daholar, ulug'larning ruhi oliy ruh bo'lib, "ular arshda turib" insoniyatga rahnamolik qilar ekan. Binobarin, poemada ham o'z xalqining erki va ozodligi yo'lida jonini ayamagan taniqli bengal shoiri Nazrul Islomga o'xshagan insonlarning ruhi ham oliy ruh ekanligi ifodalangan. Naql asarda qoliplash vazifasini bajaradi.

A.Oripovning "Ranjkom" dostonida ham naqldan foydalanilgan. Asar qahramoni Farrosh kampir ranjituvchilar komiteti a'zolariga shunday naql aytib beradi:

Bir qabila yo'lboshchisi demish Temurga: - Sen bizlarni qurol bilan zabt etding, amir. Modomiki, ketmas bo'lib kelding bu yerga, Fuqaroga egalik qil, qo'llagil tadbir. Qassob bo'lsang so'yib tashla shu zahotiyuq Sotib yubor, agar kasbing bo'lsa savdogar. Magar undoq emassanmi, tut bizga quloq, Sen bizlarga baxt ato et, podshoh bo'lsang gar¹⁶. Farrosh kampir Ranjkom a'zolarining qilmishlaridan nafratlanib, ibrat bo'lsin deya o'z yurishlari bilan olamni zir titratgan Amir Temur haqidagi naqlni keltiradi. Odamlarini ranjitish, ularga turli

¹⁶ Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. -Т.: Ф.Фулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001й, 375-6.

yo'llar bilan ozor berish rejasini tuzgan kimsalar: rais, birinchi a'zo, ikkinchi a'zo singari Ranjkom a'zolari dono kampirning bu ibratomuz, axloqiy mazmunga ega hikoyasidan so'ng bir qadar vijdonlari qiynaladi. Zero, shoir yaratgan obrazlar ichida boshda shunchaki personaj bo'lib ko'ringan, aslida esa dostonning bosh g'oyaviy-badiiy konsepsiyasini belgilovchi obraz darajasiga ko'tarilgan Farrosh kampir obraziga alohida ma'no yuklaydi. Sobiq tuzumning qora ko'rguliklarini boshidan o'tkazgan kampirning fikrlari, ayniqsa, so'zlab bergan naqli vositasida hushyorlikka da'vat etiladi, zang bosgan, mogorlagan vijdonlarni uyg'onishga chorlaydi.

Xalq tilida ba'zan rivoyatni naql deb ham aytadilar. Lekin folklorshunoslik ilmidan naql va rivoyat alohida-alohida janr sifatida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ikkala janrni farqlamaslik, ularni chalkashtirib qo'llash ayrim shoirlar ijodida kuzatiladi. Jumladan, Shukur Qurbonning Alisher Navoiyga bag'ishlangan tarixiy mavzudagi "So'z yo'li" poemasi bu jihatdan e'tiborli. Unda shoir rivoyatni naql sifatida qo'llaydi. Aslida esa Navoiy haqida asar tarkibiga kiritilgan uchta naql rivoyatdir. Shu bois bu asarni rivoyatlar asosida qurilgan dostonlar qatoriga kiritish mumkin.

Shunday qilib, afsona va naqlarning poemalar badiiy strukturasi o'rin olishi janrning badiiy ufqlarini kengaytirdi. Birinchidan, zamonaviy voqelikni afsona uslubida aks ettirish natijasida ("Haqqush qichqirig'i", "Najot) xalqimizning ko'p asrlik orzu-intilishlarini, yaqin tariximiz sahifalarini jonli ifodalashga erishildi. Ikkinchidan, afsona va naqlar poemalarga axloqiy, falsafiy mazmun ("Beshbarmoq", "Yobondagi yolg'iz daraxt", "Ruxdar isyoni", "Ranjkom") baxsh etdi. Bu esa ularning o'qimishlilik darajasini oshirishga xizmat qildi. Uchinchidan, afsonalar poema badiiy kompozitsiyasini boyitdi. Natijada liro-epik poemaning epik tasvir imkoniyatlari yanada kengaydi. To'rtinchidan, xalq og'zaki ijodi janrlarining poema mazmuniga singdirilishi shoirlarning milliy zamindan uzilmaganliklarini ko'rsatadi.

II BOB.

Rivoyat - dostonlari badiiyati

XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek poemachiligi sujet va kompozitsion jihatdan ham yangilanib bordi. Dostonlar strukturasi xalq og'zaki ijodiga xos badiiy idrok va ifoda madaniyatining olib kirilishi poetik mazmunni, milliylikni kuchaytirishdan tashqari, uslubning rang-baranglashuviga xizmat qildi. Ma'lumki, xalq orasida mashhur tarixiy shaxslar, joylar haqidagi va axloqiy mazmundagi turli rivoyatlar mavjud. Ularning lirik va liro-epik poemalar strukturasi singishi natijasida janr tarkibida va tizimida bir qator o'zgarishlar yuzaga keldi. Ushbu hodisa janrning yangi-yangi ko'rinishlarini vujudga keltirdi. Mirmuhsin "Shiroq", E.Vohidovning "Ruhlar isyoni", A.Oripovning "Hakim va ajal", O.Matjonning "Cho'ldagilar", X.Davronning "Vatan haqida yetti rivoyat", T.Nizomning "Uch so'z", H.Sa'dullaning "Do'st qadri", U.Qo'chqorning "Shiroq", Q.Rahimboyevaning "Qishning oxirlari" singari poemalarida xalq rivoyatlari sujetlaridan foydalanilgan. Shuning uchun bu asarlarni rivoyatlar asosida qurilgan poemalar qatoriga kiritish mumkin. Ammo ular doston tarkibida rivoyatning tutgan o'rni va vazifasiga qarab bir-biridan o'zaro farq qiladi. Shunga ko'ra bu xil dostonlarni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Rivoyat sujeti asosida qurilgan poemalar. (Mirmuhsinning "Shiroq", A.Oripovning "Hakim va ajal", X.Davronning "Vatan haqida yetti rivoyat", U.Qo'chqorning "Shiroq" singari poemalari).

2. Rivoyat kompozitsion qolip vazifasini bajargan poemalar (H.Sharipovning "Qilmish-qidirmish", T.Nizomning "Uch so'z", H.Sa'dullaning

"Do'st qadri", O.Matjonning "Cho'ldagilar", Q.Rahimboyevaning "Qishning oxirlari" kabi asarlari).

3. Sujetida rivoyat psixologik tasvir vositasi vazifasini bajarib kelgan poemalar (E.Vohidovning "Ruhlar isyoni" asari).

Ma'lumki, eng qadimgi afsonalar va rivoyatlar ko'pincha ayrim parchalar yoki qisqartirilgan bayonlar tarzida u yoki bu yozma manba ichida saqlanib qolgan. Jumladan, "To'maris", "Shiroq", "Zariadr va Odatida", "Amorg va Sparetra" kabi rivoyatlar shular sirasiga kiradi. Biroq bular orasida "Shiroq" rivoyati alohida o'rin tutadi.

O'zbek poemachiligida uzoq tariximiz sahifalarini yoritib turgan, nomi xalq rivoyatlari va afsonalari bag'riga singib ketgan siymolar obrazlarini badiiy gavdalanitirish o'ziga xos an'ana tusini oldi. Shulardan biri yuksak vatanparvarlik fazilatini o'zida mujassam etgan xalq qahramoni Shiroqdir. Xalq og'zaki ijodida uning betakror jasorati haqida "Shiroq" rivoyati yaratilgan. Ma'lumki, bu rivoyat Poliennig "Harbiy hiylalar" asari orqali bizning kunlarimizgacha yetib kelgan. Shiroq o'z vatanini, o'zi mansub bo'lgan sak (shak) elini behad sevadi. Undagi vatanparvarlik, vatan taqdiriga kuyinish, u uchun shirin jondan kechish tuyg'usi betakror, bebaho, ibratli fazilatlardandir. Tabiiyki, xalq o'z qahramonlarini ideallashtirib aks ettiradi. Shu orqali qahramonlarning shaxsi, xatti-harakatlari epik asarlar qonuniyatiga muvofiq bo'rtiriladi. Natijada xalq qahramoni ideal obraz sifatida gavdalanadi. "Shiroq" rivoyatida ham shu manzarani kuzatish mumkin.

Tarixiy voqea va hodisalar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan bu rivoyat tarixiy rivoyatlar qatoriga kiritiladi. "Shiroq" rivoyatining yaratilishiga saklardan bo'lgan oddiy bir cho'ponning hiyla ishlatib, bir o'zi dushmani mag'lub etishi voqeasi asos bo'lgan. Bu voqeaning tarixiyligini, hayotda yuz berganligini tarixchi Polien tasdiqlamoqchi bo'ladi. Asar sujetidan ma'lumki, Shiroq el-yurt manfaati, baxt-saodati, uning daxlsizligi, erki va mustaqilligi uchun qurbon bo'ladi. U o'z joniga qasd qilgan Ojiz odam emas, aksincha, nihoyatda jasur, mustahkam irodali, kuchli va chidamli, fidoiy inson. Uning uchun vatan ozodligi va mustaqilligidan ko'ra oliy tushuncha yo'q. Shiroq yurti tinch bo'lsa, oilasi va bolalari tinch

bo'lishini yaxshi anglaydi. Ularning erkin va ozod yashay olish imkoniyati vatan erki va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqligi Shiroqni chuqur o'ylantirib, yuksak qahramonlik sari undaydi. Chunki vatan ozod bo'lmasa, vatanda dushman askari bemalol izg'ib yursa, unda yovuz kelgindilar hukmronlik qilsa, oila erki, xalq erki, vatan erki haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Xuddi shu fikr-kechinmalar Shiroqning qalbini larzaga soladi va uni so'nggi yo'lga undaydi. Oddiy bir cho'ponning shu buyuk jasorati hayrat va tahsinga sazovordir. Shiroq haqidagi bu shov-shuvli voqealar nechog'lik haqiqat ekanligi bizga qorong'u. Qadim tarixchisi Polienning ma'lumotlariga ko'ra, u tarixiy shaxsdir. U haqdagi tarixiy ma'lumotlar esa "Shiroq" rivoyati sujeti yaratilishiga asos bo'lgan. Faqat unda Shiroq bilan bog'liq tarixiy ma'lumotlar rivoyat janri talabiga muvofiq hayotiy uydirmaga tayanib bayon etilgan. Uydirma yordamida Shiroq shaxsi Shiroq obrazida jonlantirilgan.

Shiroqning betakror jasorati va qahramonligi XX asr o'zbek ijodkorlarini unga bag'ishlab badiiy asarlar yaratishga undadi. Ayniqsa, Mirkarim Osim bu ishga nasrda birinchilardan bo'lib qo'l urdi. Uning tajribalarini yana Yavdot Ilyosov "Xol-xol o'lim" qissasi bilan davom ettirdi. Uzbek poemachiligida ham bu borada ma'lum muvaffaqiyatlarga erishildi. Jumladan, shoir Mirmuhsin bilan Usmon Qo'chqorning "Shiroq" nomidagi poemalari mulohazalarimizni tasdiqlaydi. Har ikki asar sujeti ham "Shiroq" rivoyati materiali asosida tuzilgan.

Mirmuhsin poemaning "muallifdan" deb nomlangan kirish qismida shunday yozadi: "Bu voqea miloddan ilgari 519-yilda bo'lgan. Pekin u hozir ham va bundan keyin ham juda ibratli bo'lib qoladi"¹⁷. Ko'rinadiki, Shiroqning mislsiz qahramonligi oradan ko'p asr o'tgandan so'ng Mirmuhsin qo'lga qalam tutqazdi. Shoir dostonida tarixiy izchillikka, hayot haqiqatini aks ettirishga ko'proq e'tibor qaratgan.

XX asrning 90-yillarida shoir Usmon Qo'chqor ham shu mavzuda "Shiroq" nomli poema yaratdi. Shoir bunda o'ziga xos yo'ldan borishga harakat qiladi. U

¹⁷ Мирмуҳсин. Танланган асарлар. 3 томлик. 1-том. Шеърлар, дostonлар. -Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973й, 334-6

poemada xalq og'zaki ijodidagi yana bir boshqa rivoyat "To'maris" asari sujetidan ham ijodiy foydalanadi. Shu bois dostonda "Shiroq" va "To'maris" rivoyatlari syujetiga xos voqeliklar qo'shib yuborilganligi yorqin seziladi. Usmon Qo'chqor dostonida badiiy to'qima ustunlik qiladi.

Mirmuhsin va Usmon Qo'chqor yaratgan "Shiroq" dostoni tuzilishi, vazni, obrazlar tizimi, badiiy uslubi, tili jihatidan o'zaro farqlanib tursa-da, asosiy g'oyasining mushtarakligi, har ikkalasi ham xalq rivoyati sujeti asosida yaratilganligi jihatidan o'xshashlik kasb etadi. Har ikkala asarni rivoyat asosida qurilgan dostonlar qatoriga kiritish mumkin

Mirmuhsinning "Shiroq" dostoni asosiy g'oyasini Vatanga va xalqqa cheksiz muhabbat va sadoqat ko'rsatish tushunchasi tashkil etadi. Unda "Shiroq" va "To'maris" rivoyatidagi qator obrazlar - Shiroq, To'maris, qabila oqsoqollari Saksfar, Omarg, Rustak, Doro, uning lashkarboshisi Ranosbat kabilar gavdalantirilgan. Shoir tarixiy shaxslar xarakterini yaratishda tarixiy haqiqatdan chekinmagan holda badiiy to'qimadan unumli foydalangan. Bu, ayniqsa, qahramonlar portretlarini chizishda yorqin ko'zga tashlanadi. Binobarin, Mirmuhsin Shiroqni o'quvchiga quyidagicha tanishtiradi:

Qo'shiq aytib, tuda ichida

O'tirardi yelkador yigit...

Boshda qo'ng'ir sur teridan bo'rk.

Qirg'iy burni, qoshlari tutash

Kayumarsning nigohi tushgan —

Qoplon derlar, do'ng manglay qo'chqor...

Shiroq derlar bu yigit otin,

Qirq yo'lbarsning kuchi bor belda¹⁸.

¹⁸ Мирмухсин. Танланган асарлар. 3 томлик. 1-том. Шеърлар. дostonлар. -Т.: Ф.Фулом номидаги дабиёт ва санъат нашриёти, 1973й, 334-б.

E'tibor berilsa, Shiroq portreti batafsil chizilib, uning xarakter-xususiyati ham yorqin tasvirlangan. Ya'ni uning qo'lidagi sher tasviri tushirilgan qilichidan tortib, kurashda biror marta mag'lub bo'lmaganligi, ot ustida burgut bo'lib chopishi, kamon o'qini bexato otishi, podaga hech qachon bo'rini yaqinlashtirmagani, mohir ovchiligi, nihoyat, tashqi ko'rinishi: tiyan nigohli, po'lat tanli, basavlat yigit ekanligi kabi jihatlar shoirning yaratayotgan qahramoniga alohida muhabbatini ko'rsatib turadi. Bu esa rivoyatdagi obrazni badiiy qayta ishlash asosida unga yangicha mazmun baxsh etilganligini ko'rsatadi. Ayni chog'da xalq qahramonining betakror qiyofasini kitobxonga ta'sirchan qilib yetkazishga ko'mak beradi. Shoir o'zi yaratgan har bir timsolga ana shu ijodiy tamoyil nuqtai nazaridan yondashishga harakat qiladi. Poemada yurt oqsoqollari Saksfar, Omiris, Rustak obrazlari ham alohida o'rin tutadi. Xalq rivoyati sujetidan farqli o'laroq "Shiroq" dostonida ular ko'proq harakat qiladi. Yana shoir asli Omarg (Amorg) ismini Omiris shaklida o'zgartirib qo'llagan. Saksfar va Rustak ismlari esa o'zgarishsiz asl holicha keltirilgan. Mirmuhsin badiiy to'qimadan foydalanib, Shiroq farzandlari obrazlarini dostoniga olib kiradi. Chunki rivoyatda Shiroqning oila a'zolari deyiladi-yu, biroq ular kim ekanligi haqida ma'lumot berilmaydi. Mirmuhsin esa badiiy to'qimadan foydalangan holda Shiroqning oila a'zolarini individuallashtiradi va ularning har biriga alohida mazmun yuklaydi.

Doro Eron shohlaridan biri bo'lib, u tarixiy shaxsdir. Xalq unga bosqinchi shoh sifatida nafrat bilan qaragan. Xalqning ana shu nafrati "Shiroq" dostoni mazmuniga ham mahorat bilan singdirilgan. Shuning uchun shoir Doro haqida shunday yozadi:

Sarkardasin ismimish Doro

Chodir ichra xotinlar kabi

Berar emish o'ziga oro...

Badfe'l emish, g'oyat qopog'on¹⁹.

Ko'rinib turibdiki, bu tasvirda Doroga nisbatan kinoya, nafrat va kamsitish bor. Dostonda Doru boshliq bosqinchilarning kirdikorlari ro'yirot ochib tashlangan. Asar bir qarashda shoir rivoyatni she'rga solib qo'ya qolgan degan taassurotni uyg'otadi. Haqiqatan, poemaning qusurli jihati ham shunda ko'rinadi. Mirmuhsin rivoyat tafsilotlari-ni she'rga solish yo'lidan borgan. Natijada rivoyat va doston o'rtasida mazmunan deyarli tafovut ko'zga tashlanmay qolgan.

Usmon Qo'chqor ham "Shiroq"²⁰ dostonini yaratishda rivoyat materialiga tayanib ish ko'rgan. Biroq u xalq qahramoniga bo'lgan cheksiz hurmatini chuqur lirizmga yo'g'rilgan satrlarda, har bir holatga ijodiy yondashgan holda kitobxonga yetkazishga harakat qilgan. Ayni shu jihat uni Mirmuhsinning "Shiroq" dostonidan ajratib turadi. Usmon Qo'chqor rivoyat mazmuniga asoslanib, yangicha ruhdagi asar yarata olgan. Buni tarixiy shaxslar va badiiy to'qima obrazlar tasvirida kuzatish mumkin. Unda voqealar rivoyatdagi kabi yaxlit sujetda ifoda etilgan.

Shiroq - dostonning bosh qahramoni. Shoir bu obrazni katta muhabbat bilan yaratgan. Rivoyatda Shiroq podachi-cho'pon sifatida tasvirlanadi. Shoir buni "otabobodan meros bir tayog'-u bir nayi" tarzida ifoda etadi. Aynan shu nuqtada badiiy to'qima bor. Haqiqatan, Shiroqning quroli tayog'idir. Rivoyatda nay haqida gapirilmaydi. Demak, Usmon Qo'chqor poema janri imkoniyatlaridan kelib chiqib, Shiroq obrazini yaratishda ijodiylikka intilgan. Natijada xalq qahramoni siymosini tasvirlashda tabiiylikka erishilgan. Bu ayni paytda, asarning epiklik jihatini kuchaytirgan.

Xalq rivoyatida hikoya qilinishicha, Doru qo'shini saklar qabilasiga bostirib kiradi. Buni eshitgan Shiroq oqsoqollar kengashiga kirib keladi. Dostonda esa Shiroq Doroning bostirib kelganini yo'lda bir choldan eshitadi. To'g'ri, rivoyatda ham Shiroq oilasi haqida fikr yuritiladi. Dostonda esa shoir Shiroq oilasi a'zolarini xuddi Mirmuhsin asa-ridagi kabi individuallashtiradi va ularni o'g'li hamda xotini sifatida kitobxonga tanishtiradi. Mirmuhsindan tafovutli jihati

¹⁹ Ўша асар

²⁰ Кўчқор У. Широқ. Ривоят. Т.: Ф.Фулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990й.

shundaki, U.Qo'chqor Shiroqning umr yo'ldoshini Guldursin tarzida nomlaydi.

U. Qo'chqor badiiy to'qima vositasida rivoyatdan farqli o'laroq vatanparvar obraziga chuqur mazmun yuklaydi. Zero, oilasini, farzandlarini sevgan kishigina vatanparvar bo'lishi mumkin. Chunki aslida yurtga muhabbat oilaga, yaqinlarga muhabbatdan boshlanadi. Shoir Shiroqni o'z o'quvchisiga yuksak bir mehr, ichki bir tug'yon bilan tanishtirishni ko'zlaganidan asarga uning o'g'li va xotini bilan vidolashuvi epizodini olib kiradi. Bu esa Shiroqning oila boshlig'i va ota sifatidagi qiyofasini yanada tiniq ranglarda ifodalash imkoniyatini bergan. To'g'ri, rivoyatda ham Shiroqning oilasini va yurtini asrash uchun o'linga tikka borganligi tasvirlangan. Dostonda esa ana shu voqelik badiiy to'qima bilan uyg'unlashgan holda g'oyatda ta'sirli aks ettirilgan.

Umuman aytganda, Shiroq obrazi Vatan uchun jonini fido etgan qahramonlarning adabiyotdagi eng ta'sirchan namunasi. Iste'dodli shoir Usmon Qo'chqor xalq rivoyati materialidan ijodiy foydalanib, ozodlik kurashchisi obrazini yorqin chizgilarda aks ettira olgan.

Abdulla Oripovning "Hakim va ajal" dostoni²¹ ham rivoyat asosida qurilgan. Ibn Sino haqidagi uch rivoyat mazmuniga asoslangan yaxlit sujetli dostondir. Buning natijasida sintezlashgan folklorizm vu-judta kelgan.

Jumladan, "Ibn Sino va kitoblar" nomli xalq rivoyatida Buxoro shahri xonining betob bo'lib qolishi, uni Ibn Sino davolashi va buning evaziga u shoh saroyidagi katta kutubxonadan foydalanish huquqiga kutubxonaga ega bo'lishi, hasadgo'y tabiblar tomonidan kutubxonaning yoqib yuborilishi voqealari hikoya qilinadi²².

A.Oripov mazkur rivoyatdagi ikkita jihatga e'tibor qaratgan: 1. Ibn Sinoning xonni davolashga Buxoroga kelishi. 2. Ibn Sino kutubxonasining hasadgo'ylar tomonidan yoqib yuborilishi. Shoir mana shu rivoyat materialini

²¹ Орипов А. Танланган асарлар. Тўрт жилдлик. 1-жилд. -Т.: Ф.Фулом номидаги.

²² Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000й, 371-389-б.

badiiy qayta ishlab, uni mazmun jihatdan boyitgan. Dostonda Ibn Sino malikani davolashga keladi. Malika esa uni tabib sifatida saroyda qoldiradi. Ibn Sinoga saroy kutubxonasidan foydalanish huquqi beriladi. Bu malikaga uylanish ilinjida yurgan vazirning o'g'li Mirzoga yoqmaydi. U malikaning kun sayin tabibga intilishini ko'rib, hasadi qo'zg'aydi va saroyning boy kutubxonasini yoqib yuboradi.

"Zahri qotil" nomli rivoyatda Ibn Sino Eron shohining qizini davolashi haqidagi voqealar aks etgan. Tund, hech kim bilan gaplashmaydigan, hech narsa yemayotgan malikani ko'rgan Ibn Sino kayfiyatni ko'taradigan dori tayyorlaydi. Dorini avval o'zida sinab kurgan tabib keyin malikaga ichiradi. Shundan so'ng shoh qizi kayfiyati ko'tariladi. Podshoh Ibn Sinodan nihoyatda xursand bo'ladi²³.

A.Oripov bu rivoyatdagi Ibn Sinoning Eron malikasini davolashi motividan ijodiy foydalangan. Dostonda malika Buxoro podshohining qizi sifatida qatnashadi. Poemadagi voqealar rivoyatdagi kabi tasvirlangan. Unda malikaning hashamlar ichida o'tirishi-yu, hech kim bilan gaplashmasligi, hech narsaga xushi yo'qligi aytiladi. Faqat Ibn Sino tashrifidan so'ng malika ruhiyati va kayfiyatida o'zgarishlar paydo bo'ladi. Shoir rivoyatdagi mana shu jihatlarni dostonga olib kirgan.

"Ibn Sino va giyohlar" nomli rivoyatda yonar gul va uning xususiyatlari haqida hikoya qilinadi. Unda Ibn Sinoning cho'ponni ilon zahri bilan davolashi, shu tufayli unga boshqa tabiblarning hasad qilishi va hakimni o'ldirishga chog'lanishi voqyealari tasvirlangan.

Dostonda A.Oripov mazkur rivoyat mazmunidan ham samarali foydalangan. Undagi Ibn Sinoning o'limga davo topishi bilan aloqador epizodlarda buni yorqin kuzatish mumkin. Ma'lumki, Ibn Sinoning ajalga davo topishga intilganini rivoyatlar va tarixiy manbalar to'la dalillaydi. Yuqoridagi rivoyatda ham shu ikki jihat alohida ajralib turadi: Ibn Sinoning yonar gul va ilon zahri yordamida insonni tiriltiruvchi dorini tayyorlashi va tabiblarning unga hasad ko'zi bilan qarashlaridir.

²³ 'Ўша жойда, 109-112-6.

A.Oripov dostonida ana jihatlarga urg'u bergan va rivoyat materialini badiiy qayta ishlab, doston holda uni o'z o'quvchisiga tavdim etgan. Rivoyatdagi cho'pon obrazi dostonida Mirzo timsolida namoyon bo'lgan. To'g'ri, rivoyatdagi cho'pon oqko'ngil, biroq dostondagi Mirzo esa hasadgo'ydir. Shoir tabiblarning hasadgo'yligi va cho'poning Ibn Sinoni tiriltirishi singari xususiyatlarni Mirzo obraziga singdirgan.

Umuman, "xalq rivoyatlari va tarixiy voqealar asosida buyuk hakim va qomusiy alloma obrazini yaratish maqsad qilib qo'yilgan doston san'at asarlarining markazida turadigan azaliy mavzular – mangulik va o'limning mohiyati, ezgulik va hasadning azaliy kurashi muammosi badiiy yuksak, quyma satrlarda talqin etilishi" (D.Begimqulov)²⁴ natijasida adabiyotimizda liro-epik poemachilik yanada badiiy takomilga erishdi. A.Oripov bir necha xil xalq rivoyatlari sujeti va tarixiy manbalarga tayanib, yangi tipdagi, yaxlit sujetli asar yaratdi.

Xurshid Davron - tarixnavis ijodkor. U hamisha tarix qatlaridan haqiqatlar izlaydi, ajdodlarimiz jasoratini yosh avlodga ibrat qilib ko'rsatadi, qadimgi xalqlarimizning yuksak e'tiqodi, vatanparvarligidan so'zlaydi. "Vatan haqida yetti rivoyat" dostoni bu jihatdan ahamiyatli²⁵. Asar mohiyatan yuqorida tahlil etilgan dostonlarga yaqin turadi. "Vatan haqida yetti rivoyat" bir-birini to'ldiruvchi yetti rivoyatdan tashkil topgan. "Bobolarmozori"deb nomlangan birinchi rivoyatning bosh qahramoni Doro hisoblanadi. Ma'lumki, uning yovuzligi xalq rivoyati "Shiroq"da yorqin tasvirlangan. Shoir mana shu rivoyat mazmunidan kelib chiqib, Doroga xos salbiy jihatlarni yanada yorqinroq ifodalashga erishgan. Juda ko'p yurtlarni egallagan Doro "dengiz ortida yastanib yotgan dasht"ga ko'z tikadi. Dashtliklar shohi unga bir shart qo'yadi: Vatan-ku vatan, agar ular mozordagi bitta qabrni g'orat qilishsa ham tish – tirnoqlari bilan ularga qarshi kurashajagini aytadi. Dastlab bu Doroni g'azabga keltiradi, mozordagi qabrni buzishni buyuradi, lekin tezda fikridan qaytadi va qo'shinini olib bu yerlardan ketadi. Zero, dashtdagi

²⁴ Begimqulov D. Шеърятимиз юлдузи. Китобда: А.Орипов. Танланган асарлар. Биринчи жилд. - Т.: Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000й, 415-6.

²⁵ Даврон Х. Ватан ҳақида етти ривоят. "Шарқ юлдузи". 1990й, 7-сон, 2-8-бетлар; 8-сон,159-163-бетлар.

bobolar mozori – Vatanning bir bo'lagi. Undagi bir qabrni toptash – Vatan tuprog'ini toptash bilan barobar. Mazkur rivoyat orqali shoir vatanning har bir qarichi muqaddas ekanligini yana bir karra uqtirmoqchi bo'ladi.

Dostondagi ikkinchi rivoyat "Bir parcha yer"da Vatan tushunchasi o'ziga xos talqin etilgan. Rivoyatning bosh qahramoni Qari Tumanning o'g'li bo'lib, u otasi vafot etgandan so'ng taxtga o'tqaziladi. Rivoyatda qo'shni xoqonning yosh podshohga ishonmasdan uni taftish qilishi voqealari tasvirlangan. U yosh podshoh uchun aziz bo'lgan narsalarni: "xudolarning otini", suluv va go'zal xotinini va, nihoyat, "o'n ikki oy yomg'ir tushmaydigan", "biror giyoh o'smaydigan" bir parcha yerni so'raydi. Yosh hoqon dastlabki ikki narsani qo'shni podshohga in'om qiladi. Biroq uchinchi narsa - bir parcha yerni bermaydi. Usha bir parcha yer Vatanning bir bo'lagi bo'lgani uchun Botir xalqqa da'vat qilib, ularni dushmanga qarshi kurashga chorlaydi:

"... Qani, dilin

Vatan mehri

Ilitgan mard bor bo'lsa.

Jangga chiqsin! Unutilmas

Vatan uchun kim o'lsa".

Yurt uchun oyoqqa turgan xalqning shiddatkorona kurashi qo'shni xoqonni shoshirib qo'yadi va u o'z qo'shinini olib bu yurt hududlaridan ketadi. Demak, shoir yosh podshohning vatanparvarligini mana shu hayotiy voqelik orqali reallashtiradi va bir parcha yer timsolida butun boshli Vatanni anglagan qadimgi ajdodlarimizning shijoatini bugungi yoshlarga o'mak qilib ko'rsatadi.

Dostondagi uchinchi rivoyat mohiyatan oldingi rivoyatlarga yaqin turadi. Unda Eron shohi va qo'shni davlat o'rtasidagi kurash haqida hikoya qilinadi. Ko'p yurtlarni bosib olib, g'alabadan masrur bo'lib turgan Eron shohiga ayg'oqchilar qo'shni o'lka isyonga tayyorlanayotganini aytadi. Unga vazirlari o'sha yurt tuprog'idan keltirib, bog'ning yarmiga tashlashni maslahat berishadi. Qo'shni

xoqon Eron shohi bilan bog'ni kezib yurganida, o'z yurti tuprog'ini taniydi. Eron shohining asl yovuz maqsadini anglagan xoqon erki uchun hamisha kurashishini bildiradi. Ko'rinadiki, xoqonni hushyorlantirgan, uni erk – ozodlik sari chorlagan narsa yurtidan keltirilgan tuproq edi. Demak, shoir yurt tuprog'i muqaddasligini, Vatan, erk va ozodlik tushunchalari bir-biri bilan hamohang ekanligini rivoyat orqali badiiy ifoda etadi.

To'rtinchi rivoyat Bobur bilan bog'liq. Ma'lumki, Bobur garchi o'zga yurtlarda yashasada, ona yurti ishqini hamisha qalbida mustahkam saqlagan. Rivoyatga ko'ra, Bobur umrining so'ngida xastalanib qoladi. Uni davolash uchun tabiblar hamma usulni qo'llaydilar. Lekin birortasi ham kor qilmaydi. Shunda Bobur navkarlaridan biri bir kaft tuproqqa qarab fol ochadigan bengallik cholga uchraydi. Bu voqea dostonida quyidagicha tasvirlangan:

Donishmand hind qildi bashorat: "Uni ta'qib aylar piyola Piyolaga chekilgan surat Yetti dona qip-qizil lola" Yana aytdi: "Shundan shoh lohas Shundan shohning dilida faryod Ul piyola bo'lmish muqaddas Shoh yurtining xokidan bunyod" Haqiqatan, bu piyolani bir paytlar beklardan biri Samarqand yoqdan kelgan karvondan olgan edi. Alqissa, shu piyolani topib, uni maydalab ko'ngandan so'ng Bobur tuzaladi va taxtga qaytadi. Ko'rinadiki, bu rivoyatda ham chuqur mazmun bor. Boburning Vatanga bo'lgan cheksiz mehri va sadoqati uni darddan forig' etadi. Beshinchi rivoyat "Vatan mehri" deb nomlanadi. Bu rivoyat yaqin tariximiz sahifalaridan so'zlaydi. Unda Kaufman zamonida yashagan samarqandlik Bobonning mard va jasurligi hikoya qilinadi. Unda yozilishicha, Bobo o'z odamlari bilan tog'ni makon tutib, vaqti-vaqti bilan bosqinchilarning jazosini berar ekan. Kaufmanning ayg'oqchilari tog' orasida bir cholni nevarasi bilan tutib oladilar va so'roq qiladilar. Chol juda tadbirkor va aqlli kishi bo'lganidan Kaufmanga nevarasini bog'lab tog'dan pastga tashlashlarini, so'ng Bobonning makoniga boshlashini aytadi. Soldatlar xuddi shunday qiladilar. Nevarasining sog'-salomat pastga tushganiga ishongan chol: Menku qari Men qo'rqaman Na qiynoq, na o'limdan. Men tayyorman Qilavergin Neki kelsa qo'lingdan! Faqat bilgin: Tog' ichida seni yengar qo'lim bor — Nevaramning otasi-yu, Mening botir

o'g'lim bor, - deydi. E'tibor qilinsa, ushbu epizod Shiroq jasoratini yodga soladi. Chol qo'llagan tadbir mohiyatan Shiroq usuliga o'xshaydi. Agar Shiroq bitta o'zi butun boshli Doro qo'shinini yengan bo'lsa, umri poyoniga yetishini bilgan chol ham bir o'zi Kaufman qo'shiniga qarshi chiqa oldi. Vatan sirini sotmagan chol tadbirkorligi tufayli nafaqat vatanparvar o'g'li va nevarasini, balki butun boshli qo'shinni qora qirg'indan saqlab qoldi. Ko'rinadiki, shoir bunda chol obraziga alohida mazmun yuklaydi. Ya'ni u tog'dagi sirni aytishi, o'zini o'limdan saqlab qolishi mumkin edi. Biroq u boshqacha va to'g'ri yo'lni tanlaydi: o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, um-rining davomchilari bo'lgan farzandi va nevarasini asrab qoladi. Bunday ishni faqat vatanparvar insongina qilishi mumkin.

"Vatan haqida rivoyat" dostoni yettita mustaqil rivoyatdan tashkil topgan esa-da, ularni bitta g'oya – Vatan va uning muqaddasligi tushunchasi birlashtirib turadi. Xurshid Davron uslubining o'ziga xosligi shundaki, u xalq rivoyatlarini yagona tizimga solib, poema imkoniyatlaridan foydalanib, vatanparvarlik g'oyasini she'riy shaklda, g'oyatda ta'sirchan qilib bugungi o'quvchiga yetkaza olgan.

Habib Sa'dullaning xotira xarakteridagi "Do'st qadri" dostoni badiiy strukturasi ham rivoyat muhim o'rin tutadi. Garchi shoirning o'zi "eslayman tog'liklar mahzun dostonin" desada, mazkur matn mazmunan xalq rivoyatlariga yaqin. Shuning uchun dostonni rivoyat asosida qurilgan poemalar qatoriga kiritish mumkin.

Poemaning yana bir muhim jihati shuki, undan o'rin olgan rivoyat to'rt bo'limdan tashkil topgan. Asarda Darmiyon mamlakatining podshosi, qabila boshlig'i knyaz, chopar singari obrazlar ishtirok etadi. Unda hikoya qilinishicha, Darmiyon mamlakatining podshosi o'zlariga yaqin joyda bir qabila knyaz boshchiligida tinch – totuv yashayotganligini eshitadi va choparini uning huzuriga yuboradi. Knyaz unga hech qachon tobe bo'lmasligini, faqat "mehr bilan do'stlik qo'lini" cho'zsa, totuv qo'shnichilik o'rnatishini aytadi. Biroq podsho makr yo'lga o'tadi. U knyazni go'yoki do'stona tarzda taklif etadi-yu, ammo hiyla qo'llaydi. Podshoni kutib olishga chiqqan knyazning qo'l – oyog'iga zanjir

solishadi va uning huzuriga olib borishadi. Shu o'rinda shoir dialog usulidan foydalanadi. Bu aslida mumtoz dostonlarga xos xususiyat bo'lib hisoblanadi:

— Mag'rursan

— G'ururim - tog'likligimda

— Tiz cho'ktirib qilgum g'ururing poymol.

— Chiranma qo'l-oyoq bog'likligimda,

Bandini bola ham yiqar bemalol!²⁶

Shundan so'ng podshoh unga eng aziz va yaqin bo'lgan ota-onasi, farzandi va xotinini dor tagiga olib kelishni buyuradi. Otasi, onasi, xotini knyazning podshoga tiz cho'kishiga rozi bo'lmaydi. Podsho ularni birin-ketin qatl qildiradi. Knyazning garchi dili o'rtansa-da, ko'zidan yosh chiqmaydi. Keyin uning yaqin do'stini dor ostiga olib keladilar. Yana undan tiz cho'kishini so'raydilar. Biroq do'sti bunga rozi emasligini aytadi. Do'stini ham o'ldiradilar. Shoir knyazning shu damdagi holatini mumtoz dostonlarga xos bo'lgan motivdan foydalanish asosida ochib beradi:

Boshin uray desa bunda yo'k, devor,

O'kirib-o'kirib chekardi faryod.

To'lg'anar ko'z yoshin to'kib shashqator

Misoli Yosuman domida Farhod.

Bunda Farhod knyazning o'zi, Yosuman esa podsho timsolida gavdalanadi. Zero, knyazning do'stidan ayrilgan paytdagi iztirobli holati Yosuman kampir qo'lida azob chekayotgan Farhodga o'xshaydi.

Qissadan hissa chiqarish mazmunida bitilgan bu dostonda rivoyat juda kata o'rinni ishg'ol etgan. Natijada asar butun boshli rivoyatdan iborat bo'lib qolgan. Shoirning asl g'oyaviy maqsadi bir qadar soyada qolib ketgan. Chunki do'st obrazi mohiyati ochilmay qolgan. Bu esa kitobxonda shoir rivoyatni she'rga

²⁶ Саъдулла Х. Дўст қадри. Достон. “Шарқ юлдузи”, 1992й, 3-сон, 136-б.

solib qo'ya qolgan degan taassurotni uygotadi. Shunga qaramay, "Do'st qadri" dostoni ham rivoyat asosida qurilgan poemalar qatorini to'ldiradi.

Shunday qilib, shoirlarimiz rivoyatlar sujetini badiiy qayta ishlab, uni poema shaklida kitobxonga tortiq etgan. Rus adabiyotshunosi M.Chislov poemada lirika, epos, dramatik turga xos xususiyatlar uyg'unlashib ketishini yozadi²⁷. Demak, poema katta imkoniyatlarga egadir. Shu bois dostonda voqealar rivoyatga qaraganda batafsil, ko'lamdor tasvirlanadi, obrazlar tasviriga keng o'rin beriladi.

To'lan Nizomning "Uch so'z" dostonida Bubna haqidagi rivoyat keltirilgan. Shu bois asarni ikkinchi guruhga – tarkibiga rivoyat sujeti olib kirilgan poemalar qatoriga kiritish mumkin. Shoir voqelik ifodasi jarayonida rivoyatga xos nasriy bayon usulini bir qadar saqlagan.

Ma'lumki, xalqimiz orasida mashhur tarixiy shaxslar haqida turli-tuman rivoyat va afsonalar mavjud. Bobur ham shunday taniqli zotlardan biridir. Unga nafaqat buyuk shoir, ulug' sarkarda, shijoatli shoh, balki inson sifatida ham muhabbat bilan qarashgan. Hatto Boburga g'oyiban oshiq bo'lgan, uni tushida ko'rib sevib qolgan qizlar son-sanoqsiz bo'lganligi ehtimoldan xoli emas. Dostondan o'rin olgan Bubna rivoyati xuddi shunday voqealardan so'zlaydi. Tarixning guvohlik berishicha, Bobur Samarqand va Andijon taxtini qo'ldan bergandan so'ng Afg'on sari yo'l oladi. Buning xabari Afg'on yurtiga ham yetib keladi. Qalandarlar ko'chalarda kezib shoh Boburning Afg'onistonga tashrifi haqida kuylay boshlaydilar. Adabiyotshunos Sh.Hasanov mazkur dostonga munosabat bildirar ekan, yozadi: "Shoir dostonda Boburning Afg'onistondagi hayotiga Bubna ismli qiz bilan bog'liq rivoyatni keltirib o'tadi. Asarning ancha qismini egallagan bu tasvir axborot tarzida yozilgan maqolaga o'xshab ketadi. Cho'pchaknamo bu tasvir o'rniga shoir Bobur ruhiyati manzaralariga e'tibor qaratganda, asar emotsional ta'sir kuchiga ega bo'lardi"²⁸. Haqiqatan, bu e'tirozga

²⁷Числов М. Время зрелости - пора поэмы. Москва: Советский писатель, 1986. С.71.

²⁸ Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси. ДД. Тошкент, 2004й, 103-бет.

qo'shilish mumkin. Chunki shoir Boburning insoniylik qiyofasini, muhabbatga munosabatini ifoda etish, asarning epik ruhini kuchaytirish maqsadini ko'zlagan bo'lsa-da, rivoyatdagi bir qator tasvirlarda sun'iylik sezilib turadi. Binobarin, Bubnaning qiz bola bo'lishiga qaramay Bobur istiqboliga chiqishi, ancha muddat unga navkar kiyimida xizmat qilib yurishi, umri poyonida Boburga o'z muhabbatini oshkor etuvchi she'riy satrlarni taqdim etishi singari lavhalarda bu kuzatiladi. Sababi, yuqoridagi holatlar sharqona odob doirasiga u qadar mos kelmaydi. Shunga qaramay, shoirning xalq rivoyatini asar badiiy strukturasi olib kirishga intilganligini ta'kidlash zarur.

H.Sharipovning "Qilmish-qidirmish" ertak-poemasi badiiy strukturasi To'qqizvoy haqidagi rivoyat muhim o'rin tutadi. Mazmunan hayvonlar haqidagi ertaklarni eslatuvchi bu asarda rivoyat qoliplovchi hikoya vazifasini bajaradi. Shoir doston qahramonlari chumchuq, qaldirg'och va ilonning munosabatlarini oydinlashtirish, qolaversa, o'rmon hayotini real tasvirlash maqsadida asar matniga "ko'hna bir rivoyat"ni olib kiradi. Bu rivoyat To'qqizvoy haqida bo'lib, mohiyatan Nuh payg'ambar qissasini yodga soladi. Unda bayon qilinishicha, bir o'spirin yigit erinmasdan to'qqiz hunarni o'rganadi va To'qqizvoy deb nom oladi:

“Ammo yigitning nomi

Chunki yorug' dunyoni

To'fon bosdi tuyqusdan...”

Diniy adabiyotlarda, xususan, Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida Nuh payg'ambar haqida qissa bor. Shoir mana shu qissa sujetini qayta ishlab, asosiy g'oyaviy niyatini yuzaga chiqarishga xizmat qildirgan.

Nuh payg'ambar haqidagi qissa (afsona)lardan birida dunyoni to'fon bosishi chog'ida uning kema yasatib, yerdagi mavjudotlardan bir juftdan saqlab qolishi, biroq kemada ovqat tugab ochlik boshlangan paytda kalamush kemaning bir chetini kemirib, uni teshib qo'yishi, shunda ilon kulcha bo'lib teshikni yopib,

xavfning oldini olishi, evaziga esa u eng shirin go'shtni talab qilishi, ammo qaldirg'och bunda ilonning istagi ushalishiga to'sqinlik qilib, odamzodni unga yem bo'lishdan asrab qolishi, shundan keyin ilonning qaldirg'ochga nisbatan dushmanga aylanishi voqealari bayon etiladi. Poemada xuddi shu sujet voqeligidan hikoya ichida hikoya sifatida foydalanilgan. Biroq unda voqealar Nuh payg'ambar nomiga emas, To'qqizvoy nomi bilan bog'lab keltirilgan. Adabiyotshunosligimizda voqea ichida voqeaning bo'lishi qoliplash usuli tarzida qayd qilinadi. Qoliplash esa asarlarda kompozitsion vosita vazifasini bajaradi. Shu yo'l bilan chumchuqning alamli holati, qaldirg'ochga bo'lgan husumati badiiy ochib beriladi. Demak, "Qilmish-qidirmish" dostoni tarkibidan joy olgan bu rivoyat ham shunday mazmunga ega. Rivoyat doston badiiy strukturasi boyitib, uning milliy ruhini kuchaytirgan.

Qutlibeka Rahimboyevaning zamonaviy mavzudagi "Qishning oxirlari" dostonida ham rivoyat kompozitsion vazifani bajargan. Asarning "Uchinchi xatim – O'qiganlarning e'tiqodi shu bo'lsa, o'qimadim – deb oliy maktabni tashlab ketmoqchi bo'layotgan hamqishlog'im Oygulga" deb nomlangan qismida xalq rivoyatlaridan biri keltirilgan. Unda hikoya qilinishicha, erk istab isyon qilgan xalqni hech qanday kuch, hatto podsho ham to'xtatolmaydi. Shunda podshoga bir oqili avval shunday maslahat beradi:

"Bir xalqning hammasi bo'lmas isyonkor

Ozodlik neligin bilmaydi bari.

Turgun daraxtlarni qo'zg'agan shamol -

Besh-o'nta kitobni o'qiganlari.

Kitobni bilganlar — tarixin bilar,

Bilar ertasini, tanir o'zini

Ketgan g'ururlarni qaytarib kelar,

-Tuzini bersa-da, bermas tizini"²⁹.

²⁹ Раҳимбоева Қ. Қишнинг охирлари. Достон. "Шарқ юлдузи", 1988 й, 4-сон, 120-6

Podsho oqili avvalning gapiga kirib, barcha bilimlilarni qilichdan o'tkazadi. Axloqiy mazmundagi bu rivoyatga shoira zamonaviy mazmun yuklaydi va shu yo'l bilan Oygulni o'qishdan voz kechish fikridan qaytarmoqchi bo'ladi.

Ma'lumki, Alisher Navoiy asarlari mazmunini chuqurroq tushunish va tushuntirish yo'lidagi ezgu harakatlar barcha davrlarda u yoki bu shaklda davom etgan. XX asr poemachiligida bu o'ziga xos an'ana tusini oldi. Shoirlarimiz Alisher Navoiy asarlaridan ta'sirlanib, ularning tag zaminida yashiringan ma'nolarni topishga intildilar. Binobarin, Omon Matjon "Ming bir yog'du" dostonida shoir "Xamsa"si mohiyatini bugungi kitobxonga tushuntirishga intiladi. Shuning uchun asar ma'rifiy xarakterga ega. Shukur Qurbon ham o'z dostonida Alisher Navoiyning hayot yo'lini tasvirlashni ko'zlamaydi, balki uning mumtoz asarlari bag'rida yashiringan ma'nolarni anglashga chog'lanadi. Ya'ni shoirning "so'z yo'lini", uning turkiy tilga bo'lgan buyuk muhabbatini tasvirlash yo'lidan boradi. Shu bois shoir hayotga daxldor bo'lgan ma'lum bir kichik epizodlarnigina asarga olib kiradi va uni xalq rivoyatlari vositasida aks ettiradi. To'rt qo'shiqdan tashkil topgan, ruhiy muloqot shaklida bitilgan mazkur dostonga uchta xalq rivoyati kiritilgan. Shukur Qurbonni "yillar davomida hazratning ona tilimiz mavqeyi hamda ravnaqi uchun olib borgan kurashlari" hayajonlantirdi va uning qo'lga qalam tutqazdi.

Dostonning "Birinchi qo'shiq" qismida "Muhokamat ul-lug'atayn"ga chizgilari tasvirlangan. "Ikkinchi qo'shiq" qismida esa "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sabb'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlari mazmunidan kelib chiqadigan hikmatomuz fikrlar ifoda etilgan. Alisher Navoiyning ijodiy jarayonini ishonarli ifoda etish maqsadida u haqidagi "Dilorom bilan kitobiy muomala" rivoyatiga murojaat qilingan³⁰. Unda Alisher Navoiyning hujrasidan chiqmay ijod bilan mashg'ul bo'lganligi xususida hikoya qilinadi. Xalq o'rtasida Navoiyning o'z

³⁰ Эл деса Навойни. Ҳазрат Мир Алишер Навоий ҳақидаги ривоятлар (Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи М.Жўраев). -Т.: Чўлпон, 1991й,52-53-6.

hujrasidan chiqmay aysh-ishrat bilan shug'ullanayotganligi haqida mish-mish tarqaladi. Sulton Husayn shu holatni tekshirib ko'rish uchun yasovul chorlaydi va u bilan birga shoir hujrasiga bostirib kiradi. Ular hayratli bir manzaraga duch keladilar. Alisher Navoiy "Sabb'ai sayyor"ning tayyor baytlarini ovoz chiqarib o'qiyotgan edilar. Sulton o'z xatosini ang'laydi va shoirga xalal bermasdan hujrani tark etadi. Ishq mavzusidagi "Sabb'ai sayyor" dostonini baland ovozda o'qigani uchun bir guruh odamlar uni aysh-ishrat bilan mashg'ul degan xulosaga kelgan ediki, aslida esa buyuk shoir shuurida tug'ilgan satrlarning ohangdorligi, ta'sirchanligi ustida ishlayotgan edi. Mazkur rivoyatni keltirish orqali Shukur Qurbon Alisher Navoiyning ijod dunyosini aks ettirmoqchi bo'ladi.

"To'rtinchi qo'shiq"da ikkita rivoyat keltiriladi. Birinchisi so'zga, tilga bag'ishlagan. Unda yozilishicha, Mirzo Alibek degan shoir she'r yozar ekan. U "Ko'zing ne balo qaro bo'lubtur, Kim jonga qaro balo bo'lubtur" baytini bitadi-yu, aysh-ishratga berilib, uni davom ettirmoqchi edi. Shunday vaziyatda Navoiy baytning "og'a-inilari"ni – keyingi misralarini ijod etadi. Natijada go'zal bir g'azal dunyoga keladi. Alisher Navoiy haqidagi "Bir matla' tarixi" xalq rivoyatida aynan shu voqelikka ishora mavjud. Bu rivoyatni she'rga solish orqali Sh.Qurbon Alisher Navoiyning badiiy so'zga nechog'li mas'ulligini, undagi shoirlik iqtidorining nihoyatda yuksakligini ifodalashga intilgan.

Uchinchi rivoyat Sulton Husayn Boyqaroning Alisher Navoiyga jilovdorlik qilgani voqealariga bag'ishlangan. Alisher Navoiyning biografiasidan ma'lumki, u "Xamsa"ni yozib tugatgandan so'ng asarni birinchi bo'lib Husayn Boyqaroga taqdim etadi. U esa buyuk shoirga ehtiromi va hurmati ramzi sifatida Alisher Navoiyning oti jilovidan ushlab, xalq orasidan olib o'tadi:

“Ahli ma’ni hayron boqar, el hayron,
Jilovdor — shoh, sultoni sohibqiron
Tilga hurmat - shohni gado aylagan
Shoirni shoh aylagan

Qadni raso aylagan”³¹.

Aynan shu voqelik "Shoir jilovdori" nomli xalq rivoyatida ham aks etgan³². Shukur Qurbon rivoyat mazmunini asar strukturasi singdirish orqali shohlarning badiiy so'zga munosabatini ochib beradi.

E'tibor berilsa, doston kompozitsiyasiga uyg'unlashib ketgan uch rivoyat qoligagovchi hikoyalar sifatida shoirning g'oyaviy-badiiy niyatini yuzaga chiqaruvchi badiiy vositaga aylangan. Ayni paytda rivoyat lirik dostoniga epik mazmun baxsh etgan. Shu asosda Shukur Qurbon Alisher Navoiyning so'z yo'lini yoritib bergan.

"Ruhlar isyoni" adabiyotshunoslar e'tirofiga ko'ra, E.Vohidov ijodining cho'qqisi hisoblanadi. Unda poemaning bir necha ko'rinishlariga xos xususiyatlar omuxtalashgan. Shuni inobatga olib, adabiyotshunos U.Normatov "Ruhlar isyoni"ni falsafiy, qahramonlik, fojeiy doston deb ataydi: "Ruhlar isyoni" shakl jihatdan ham o'ziga xos, novatorona asar. U xilma-xil she'riy shakl, ritm, hissiy ohang, ranglar ham hayotiy lavhalar, ham rivoyatlar, shartli-simvolik ifodalar sintezidan tashkil topgan"³³.

Haqiqatan, asarda Nazrul Islom qismatini ochib berish uchun shoir bir necha usullardan foydalangan. Shulardan biri asar matniga rivoyatlarning singdirilishidir. "Lirik dostonlarda, -deb yozadi adabiyotshunos Sh.Hasanov, - metaforik fikrlash tarzi kuchaygan bo'lsa, liro-epik va dramatik dostonlarda folklor ohangining ta'siri sezilarli bo'lmoqda. Birgina "Ruhlar isyoni"dagi rivoyatlarning o'zi ham fikrimizni tasdiqlab turibdi. Dostondan joy olgan rivoyatlarning bari Sharq folklorining mumtoz durdonalaridir. Gap bu rivoyatlarning mumtozligida ham emas. Asosiysi - bu rivoyatlarning doston sujetiga singdirib yuborilganligida. Zamonaviy dostonchilikda realistik va romantik tasvir usullarining omuxta

³¹Қурбон Ш. Сўз йўли. Тарихий дoston. “Шарк юлдузи”, 1991й, 2-сон, 108-б.

³³ Эл деса Навойни. 5-6-б.

etilayotganligi janrning yangi istiqbolidan dalolat beradi"³⁴. Binobarin, asar strukturasi o'rin olgan: "Jaholat haqida rivoyat", "Abadiyat haqida rivoyat", "Fidoiylig haqida rivoyat", "Shoh Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat"lar asar kompozitsiyasida psixologik tasvir vositasi ham bo'lib kelgan. Shu bois bu asarni rivoyat psixologik tasvir vositasi vazifasini bajargan dostonlar qatoriga kiritish mumkin. Chunki o'z xalqining erki va ozodligi uchun kurashgan isyonkor bengal shoiri Nazrul Islomning qalb manzara-lari, ruhiy kechinmalari rivoyatlar orqali yanada yorqinlashgan. Ularning har biri qahramon xarakteriga xos qaysidir bir muhim jihatni oydinlashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Asarning muqaddima qismida hayot va abadiyat hususida mulohaza yuritiladi. Zero, istibdodda yashaydigan inson uchun abadiyatni orzu ham qilish mumkin emas. Shu o'rinda shoir "Abadiyat haqida rivoyat"ni keltiradi. Aytishlaricha, obi hayot suvi bo'lib, undan ichgan kishi abadiy umr kechiradi. Rivoyat asosini ana shu voqelik tashkil etadi. Unda sahroda tashna qolgan yo'lovchi va obi hayot suvini ichib ming yillardan buyon azob chekayotgan chol obrazi yaratilgan. Yo'lovchi siymosida sabr-qanoatli insonlar timsoli gavdalanadi. Shoirning xulosasi shuki, inson bu dunyo-da abadiy hayot emas, foniy umr tanladi. Chunki inson umrining mazmuni yaqinlar, do'stlar, hamsuhbatlar mavjudligi bilan belgilanadi. Buni shoir chol obrazida yorqinlashtiradi. Doston mazmunidan inson ezgu ishlari va amallari bilan abadiyatga daxldor bo'lishi mumkin degan mantiqiy xulosa kelib chiqadi. Aslida rivoyatning shoir qahramoni bilan bog'liqlik jihati nimada? Nazrul Islom ham xalqining ozodligi uchun kurashga bel bog'ladi. Demak, u abadiyat sari yo'l ochdi. Zero, odam bir asr yashashi mumkin. Biroq inson umri yil bilan emas, bajargan ezgu amallari bilan o'lchanadi. Nazrul Islomga o'xshagan erk va ozodlik uchun kurashganlarning hayoti manguylikka daxldor. Rivoyat qahramon ruhiyatidagi mana shu jihatni ochishga xizmat qiladi. Ayni paytda uning so'ngida shoirning qissadan hissa tarzida aytgan mulohazalari ibratomuz, aforistik fikr darajasiga ko'tariladi:

Bu hayotning yarmi rohat

³⁴ Хасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми узбек дostonлари поэтикаси. ДД. Тошкент

Yarmi g'amdir, shukr qil.

Umring uzun bo'lsa - rahmat,

Agar kamdir, shukr qil³⁵.

"Ruhlar isyoni" yagona sujet chizig'iga ega emas. Biroq o'rni-o'rni bilan shoir hayoti sahifalariga nazar tashlanadi. Binobarin, uning bolalik, o'smirlik, yoshlik yillari shoir nigohidan o'tadi. O'tli bir davrda dunyoga kelgan Nazrul Islom ingliz zulmi ostida ezilayotgan xalqiga najotkor bo'lishga intildi. To'g'ri, xronologik vaqt va voqealar tafsiloti asarda muhim o'rin tutmaydi. Biroq tarixiylik xususiyati sezilib turadi. Ana shu xususiyat tarixiy rivoyatlarga ehtiyojni vujudga keltirgan. Natijada E.Vohidov xalq rivoyatlariga murojaat etgan. U lirik tasvirni epiklik bilan uyg'unlashtirish va bosh qahramon ruhiyatida kechayotgan turfa holatlarni hayotiy ifodalash maqsadida "Fidoiylilik haqida rivoyat"ni keltiradi. Qadim Hindistonda eri o'lsa xotinini, xotin o'lsa erini qo'shib ko'mish urf bo'lgan. Rivoyat ana shu voqyelikdan so'zlaydi. Unda jangga ketayotgan bir o'g'lonning jasorati: Hindistonda ming yillardan buyen davom etib kelayotgan udumga isyoni tasvirlangan. Chunki u podshohga mardona turib, agar jangda halok bo'lsa, xotini bilan emas, jang quroli bilan qo'shib ko'mishlarini so'raydi. Shundan boshlab Hindistonda mazkur udum barham topadi. Demak, bir yigitning fidoiyligi, jur'ati va jasorati tufayli xalq eski odatdan qutuladi.

Hindistonni ozod ko'rish istagida yongan fidoi inson Nazrul Islom jangchi o'g'lon singari birinchilardan bo'lib ona xalqi bo'ynidagi istibdod zanjirini uzishga bel bog'laydi. Demak, rivoyatdagi jangchi o'g'lon va dostondagi Nazrul Islom obrazlari orasidagi mushtaraklik aynan shu jihat bilan belgilanadi. Dostonda 1926-yildagi Kalkutta g'alayoni va unda Nazrul Islomning ishtiroki voqealari epik bayon uslubida tasvir etiladi. Nazrul Islom xalqni to'xtatishga harakat qilgani uchun hibsga olinadi va zindonga tashlanadi. Mana shu tarixiy voqelik mazmuniga vobasta holda shoir asarga "Jaholat haqida rivoyat"ni olib kiradi. Unda xalqni

³⁵ Воҳидов Э. Садоқатнома. -Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986й, 373-6.

giyohlar bilan davolab, el ichra mashhur bo'lgan tabibning qismati hikoya qilinadi. Dostonda johil olomon tomonidan tabibning olovda kuydirilishi, ko'zi nashtar bilan ochilgan cholning olovga o'tin keltirib tashlashi voqealari nihoyatda ta'sirchan ifoda etilgan.

Shoir chol obraziga alohida mazmun yuklaydi. Chunki uning nutqida bu dunyodagi norasolliklar, insonning xor etilishi aks etgan. Chol ham o'zicha haq. Ammo hakim ko'p yillik izlanishlari sarobga aylanganidan qattiq o'kinadi va olomondan olovni balandroq yoqishlarini so'raydi. Pekin yillar o'tib elning aql ko'zi ochiladi, hakimga oltindan haykal o'rnatadilar. Hakimning achchiq qismatiga jaholat, ilmsizlik sababdir. Binobarin, Nazrul Islom va Hakim qismati nihoyatda o'xshash. Chunki Nazrul Islom ham olomon tomonidan zindonband qilinadi. Rivoyat bosh qahramon Nazrul Islom qalbida kechayotgan tug'yonlarni, uning haqsizlikka qarshi isyonini yorqin ifodalashga xizmat qilgan.

Dostonning "Tutqunlikda" deb nomlangan qismida shoirning zindondagi hayoti aks ettiriladi. U yerda ham ozodlik yo'lidagi mardona kurashni boshlab bergan shoirning ko'nglida o'kinch armon emas, dilshodlik hukmron. E.Vohidov Nazrul Islomning aynan shu holatiga hamohang "Shoh Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat"ni keltiradi. Ma'lumki, Avrangzeb otasi Shoh Jahondan taxtni zo'rlik bilan tortib oladi. Shundan so'ng o'sha davr udumiga ko'ra u uy qamog'iga mahkum etiladi.

O'g'li tomonidan tahqirlangan Shoh Jahon uyining tor darchasidan keng olamni, sevimli "Toj mahal"ni ko'radi va shunga ham shukr qiladi. Olomon - jaholat eli tomonidan bandi qilingan Nazrul Islom ham zax zindonning kichkina tuynugidan keng olamga nazar soladi. Demak, Shoh Jahon va Nazrul Islom qismatlaridagi mushtaraklik rivoyat orqali yorqin ifodalangan.

Umuman, poema tarkibidagi har bir rivoyat chuqur mazmunga ega. Ular bengal xalqi ozodligi uchun kurashgan isyonkor shoir Nazrul Islom ruhiyatida kechadigan iztirobli holatlarni, ozodlikka va erkka tashna qalbning manzaralarini yorqin ifoda etishda psixologik tasvir vosi-tasini bajargan. Doston shu jihati bilan XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek poemachiligi ufqlarini yanada kengaytirdi.

Yuqorida tahlil etilgan dostonlarda har bir rivoyat poemalar tabiatida o'zgacha, bir-birini takrorlamagan holda badiiy vazifalarni ado etgani kuzatiladi. Mazkur hususiyatlar quyidagilarda ko'rinadi:

Birinchidan, Mirmuhsinning "Shiroq", A.Oripovning "Hakim va ajal", U.Qo'chqorning "Shiroq", X.Davronning "Vatan haqida yetti rivoyat" singari poemalari badiiy strukturasi rivoyatlar sujeti singdirilgan. Natijada dostonlarda rivoyatga xos epiklik jihati yanada kuchayib, chuqur lirizm bilan uyg'unlashib ketgan. To'g'ri, Mirmuhsinning "Shiroq" dostonida rivoyatni shunchaki she'rga solib qo'ya qolish xususiyati seziladi. Biroq bu jihat ko'p o'rinlarda (Shiroqning qahramonligi, oilasi tasviri kabilar) asar badiiyati soyasida qolib ketgan. Usmon Qo'chqor esa rivoyatdagi har bir epizodga ijodiylik bilan yondashgan. Har ikkala dostonning qiyosiy o'rganilishi shuni ko'rsatdiki, ularda tarixiy haqiqat va badiiy to'qimaning uyg'unlashganligini kuzatish mumkin. Mirmuhsin va Usmon Qo'chqor bugungi o'quvchiga Shiroqning jasoratini yanada ta'sirchanroq yetkazish maqsadida voqelikni keng va batafsil tasvirlashga (poema imkoniyatlaridan kelib chiqib), xalq qahramoni siymosini yorqinroq gavdalantirishga intilganlar.

A.Oripov esa Ibn Sino haqidagi bir necha rivoyat sujetidagi maqbul jihatlarni badiiy qayta ishlab, yaxlit sujetli doston yaratgan. "Hakim va ajal" dostoni sujetiga rivoyatlar shu darajada singishib ketganki, kitobxon uni real voqelikdan deyarli ajratolmaydi. Xurshid Davronning "Vatan haqida rivoyat" dostonining shu turdagi poemalardan farqi shuki, birinchidan, u bir necha kichik kompozitsion bo'laklardan tashkil topgan. Mazkur kompozitsion bo'laklarning har biri bir xalq rivoyati asosida qurilgan. Ikkinchidan, har rivoyatda alohida-alohida qahramonlar qatnashadi. Ya'ni asar yagona sujet va yagona obrazlar tizimiga asoslanmagan. Biroq ular yagona g'oyaviy-badiiy konsepsiya asosida yaxlitlik kasb etgan. Uchinchidan, rivoyatlar epik bayon usuli saqlangan holda she'rga solingan. Shu bois mazkur asar 90-yillar o'zbek poemachiligida o'ziga xos o'rin tutadi.

Ikkinchidan, H.Sharipovning "Qilmish-qidirmish", T.Nizomning "Uch so'z", H.Sa'dullaning "Do'st qadri", Q.Rahimboyevaning "Qishning oxirlari",

Sh.Qurbonning "So'z yo'li" singari dostonlarida esa rivoyatlar kompozitsion vazifani bajargan. Bunda rivoyatlar shoirlarimizning g'oyaviy niyatini yuzaga chiqaruvchi muhim vositaga aylangan. H.Sa'dullaning "Do'st qadri", Q.Rahimboyevaning "Qishning oxirlari", Sh.Qurbonning "So'z yo'li" poemalarida rivoyat axloqiy mazmun tashiydi. Shu asosda yaratilgan obrazlar mohiyati ochib beriladi. "Qilmish-qidirmish"da keltirilgan rivoyat chumchuq xarakterini ochishdan tashqari asarning umumiy sujet yo'nalishini belgilashga ham xizmat qilgan.

Uchinchidan, Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni badiiy strukturasi to'rtta rivoyat olib kirilgan. Bu esa janr strukturasi yangicha ifoda unsurlarini vujudga keltirgan. Ularning har biri ramziy-timsoliy mazmunga ega. Rivoyatlar bosh qahramon Nazrul Islom ruhiyatida kechayotgan jarayonlarni yorqinlashtirishga, asarning falsafiy mazmunini kuchaytirishga xizmat qilgan. Shu asosda shoir kitobxonni o'z qahramoni bilan tanishtirishga erishgan. Ayni paytda rivoyatlar tarixiy xarakterda bo'lgani uchun asarning umumiy mazmuniga muvofiq kelgan. Shoir shu yo'l bilan dostonning tarixiy mavzuda ekanligiga alohida urg'u bergan.

To'rtinchidan, xalq rivoyatlarining dostonlar badiiy strukturasi olib kirilishi XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek poemachiligida alohida adabiy hodisa hisoblanadi. Bu ayni paytda shoirlarimizning xalqimiz ma'naviy qadriyatlarini, og'zaki ijod namunalarini, ayniqsa, rivoyatlarni yaxshi bilishlaridan dalolat beradi.

Beshinchidan, rivoyatlar asosida qurilgan dostonlar epik tasvir imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ko'rinadiki, dostonlar tarkibidan o'rin olgan rivoyatlarning har biri o'zining g'oyaviy-badiiy yukiga ega. Eng asosiysi, ular poema janri talablariga bo'ysundirilib, she'riy shaklga solingan. Shu asosda poetik fikrni ta'sirchan ifodalashga, mazmunni yorqin aks ettirishga erishilgan. Muhimi, xalq rivoyatlari doston badiiy strukturasi boyitishga xizmat qilgan. Bu esa XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek poemachiligidagi yetakchi tendensiyalardan biri sifatida e'tirof

etilayotir. Ayni chog'da ijodkorlarimizning janriy-uslubiy izlanishlarining mahsuli sifatida ham qimmatlidir.

Umumiy xulosalar

Ming yillar davomida Sharq adabiyoti an'analari ta'sirida rivojlanib kelgan o'zbek adabiyoti XX asrda mazmunan va shaklan qator yangilanishlar jarayonini boshdan kechirdi. Bu davr o'zbek ijodkorlari mumtoz adabiyot an'alarini davom ettirish bilan birga jahon adabiyotining hayotbaxsh tajribalarini ham o'z ijodlariga singdira boshladilar. Qadimda dostonlar qahramonlik ruxiyatiga tayangan bir shaklida yaratilgan bo'lsa, bugungi kunda kelib uning qurilishida anchagina o'zgarishlar sodir bo'ldiki, bular yaxlit bir izlanishlarni olib borishga sabab bo'ldi.

O'zbek xalqining ma'naviy me'rosi bo'lgan shunday qadimiy asarlari borki, bu og'izdan-og'izga o'tib zamon va vaqt, qolaversa, davr kishilarining hayollarida sayqallanib yahlit bir butunlikda sujet va kompozitsiyasidagi kamchiliklar bartaraf etilib yaratilgan. "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" singari xalqimizning betakror san'at durdonalari bunga misol bo'la oladi. Biroq bugungi doston o'ziga xos xususiyatlari bilan xalq eposlari sanalgan "Alpomish", "Go'ro'g'li"lardan farqlanganidek, o'zining yaqin o'tmishdagi namunalaridan ham ajralib turadi. Har bir tarixiy davr, muayyan ijtimoiy voqelik doston tabiatida o'z izini qoldirib kelmoqda.

"XX asrning 20-50-yillaridagi doston namunalari markazida muayyan

qahramon hayotining xarakterli bir davri turardi. (G'.G'ulomning "Ko'kan", H.Olimjonning "Zaynab va Omon", Uyg'unning "Jontemir", A. Muxtorning "Po'lat Quyuvchi" asarlari kabi). 60-70-yillarga kelib esa dostonlarga bir konkret voqea, real bir hayotiy hodisa asos qilib olinadigan bo'ldi va lirik qahramon o'sha voqea-hodisadan mutaassirlanish natijasida ko'nglida tug'ilgan ehtirolari, his-hayajonlari, xitoblari bilan doston sujetini harakatga keltiradigan bo'ldi (Mirtemirning "Sur'at", S.Zunnunovanning "Ruh bilan suhbat", E.Vohidovning "Nido" va boshqa dostonlar). O'tgan asrning 80, ayniqsa, 90-yillarida yaratilgan dostonlarda esa muayyan bir qahramonning hayot tarixi yoki muayyan bir voqea-hodisani asos qilib olish unchalik ham muhim bo'lmay qoldi (Zulfiyaning "Xotiram siniqlari", A.Mahkamning "Ishq", "Tavajjuh", I.Otamurodning "Istarim", "Sen", Faxriyorning "Ayolg'u", "Muchal yoshi", S.Ashurning "Tunchiroq" singari dostonlari). Asar markazida muayyan voqealar tizimi yoki ma'lum bir voqea turmaganligi bois bugungi dostonlar lirikaga yanada yaqinlashdi, o'zining dostoniy ko'lamdorligini saqlash ehtiyoji esa mushohadakorlikning tasavvufiy-falsafiy, modernistik ohanglarini talab eta boshladi, hatto, xalq, vatan kabi epik muhtashamligni taqozo etadigan yirik mavzular talqini ham subektiv tarzda hal etiladigan bo'ldi. Tafakkur va ong osti qatlamlariga chuqurroq kirish natijasida doston qahramoni o'zlikni taftish qilishga qaytdi, o'zlikni barkamol etish tadorigini ko'ra boshladi. Zamonaviy shakl mumtoz mohiyatni shu tariqa qabul qila boshladi."³⁶ dab ta'kidlaydi - Sh.Hasanov . Darhaqiqat, bugun dostonlar qurilishida ko'pgina o'zgarishlar sodir bo'ldi bu uning nafaqat. Shaklida balki sujetida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Bunda uning shaklidagi o'zgarishlar janr xususiyatidagi isloxlarga olib keldiki, biz o'z ishining birinchi bobida bu haqida batafsil gapirib berishga harakat qildik. Jumladan, Faxriyorning "Yoziq" asari e'tibor qilib, unda bir necha afsona mazmuni va qahramonlariga ishora qilinganligi kuzatiladi. Shulardan biri "Dedal va Ikar" afsonasidir. Undagi bir lavhaga: Dedal va Ikarining osmonga uchishi voqeasiga ishora qilingan:

³⁶Хасанов Ш. Достон таркиби ва табиати. –Сам.:Самарқанд, 2011й, 4-бет

Dedal uchib boradi,
dedaluslar termular.

Ikar uchib boradi,
"ikaruslar" o'rmalar³⁷.

Shoir afsonani bugunga bog'lagan, Dedal va Ikar singari afsonaviy qahramonlarga ishora qilish orqali talmeh yaratgan.

Ikkinchi afsona Iskandar Zulqarnayn haqida bo'lib, unda ham cho'ponning nay yasashi holati asos qilib olingan. Ma'lumki, Maqsud Shayxzoda aynan shu afsonaga tayanib, "Iskandar Zulqarnayn" nomli poema yaratgan edi. Faxriyor esa undagi bir motivni cho'ponning nay yasashi epizodini asarga olib kirgan:

Yoziqlar goh sura, goh oyat
quloq tutar sichqonlar — avom.

Kungaboqar quloqni tunda
G'or — quduqqa tashlab yuborar.

qamish unib chiqadi undan
yorab!..

Bozinger yutgan qilich singari
quduqning bo'g'ziga qamish qadalar.

Cho'pon yo'q nay yasab olgani,
Qishloqqa qaytmadi podalar.

Afsonaga ko'ra Iskandar Zulqarnaynning boshida shoxi borligini eng so'nggi usta-sartarosh bilar edi. Shuning uchun Iskandar bu sirni hech kimga aytmalik sharti bilan unga sochini oldiradi. Sartarosh ancha muddat mazkur sirni yashirib yuradi. Biroq unga bu og'irlik qiladi. Bir kuni quduqqa Iskandarning shoxi borligini aytadi va yengil tortib, uyiga qaytadi. Yillar o'tib, quduq ko'milib, o'rnidan qamishlar o'sib chiqadi. Cho'pon o'sha qamishlardan nay yasab, uni chalishga chog'lansa, kuy o'rnida Iskandarning shoxi borligi haqidagi sado

³⁷ Фахриср. Ёзик. Достон. "Шарк юлдузи", 1991й, 4-сон, 91-6.

chiqadi. Faxriyor ana shu afsonaviy voqelikka ishora qiladi. Bunda g'or — quduq, cho'pon, nay singari epik makon va obrazlar aynan afsonaga xosdir - degan nazariy qarashlarni berishga intildikki bu ishimizning nazariy qiymatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi degan umiddamiz.

Ishning ikkinchi bobida esa bugungi rivoyat dostonlarini badiiyatini o'rganib chiqiga etiborimizni qaratdik va aynan undagi obrazlar, she'riy san'atlar, asar tili va badiiyatini belgilab beradigan boshqa unsrlariga nazar tashladik. Bugungi dostonlar poema tarkibidagi har bir rivoyat chuqur mazmunga ega. Ular bengal xalqi ozodligi uchun kurashgan isyonkor shoir Nazrul Islom ruhiyatida kehadigan iztirobli holatlarni, ozodlikka va erkka tashna qalbning manzaralarini yorqin ifoda etishda psixologik tasvir vositasini bajargan. Doston shu jihati bilan XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek poemachiligi ufqlarini yanada kengaytirdi.

Shunday qilib, XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek poemachiligi ham shakl, ham mazmun jihatdan badiiy mukammalikka erishgan yaxlit poetik tizim sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek shoirlari xalq dostonlaridan, mumtoz dostonchilik an'alaridan muvaffaqiyatli foydalanish asosida uning mazmunini yangilashga va shakliy-uslubiy rang-baranglik kasb etishiga erishdildar. Ayniqsa, davr poemachiligida folklorizmlarning turli tiplari qo'llanilishi shoirlarning ko'p yillik shakliy – uslubiy izlanishlari mevasi sifatida poema janri tipologiyasini boyitishga samarali ta'sir ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

IJTIMOIIY-SIYOSIIY ADABIYOTLAR:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008й.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997й.
3. Каримов И.А. Ўз келажагимизни ўз кўлимиз билан қурамиз. - Т.: Ўзбекистон, 1999й.
4. Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар. - Т.: Ўзбекистон, 2000 й.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. - Т.: Ўзбекистон, 1999 й.

ILMIY ADABIYOTLAR:

6. Алимухаммедов А. Антик адабиёт тарихи. - Т.: Ўқитувчи, 1975й.
7. Амилова М. Ўзбек совет адабиётида фолкълор анъаналари. - Т.: Фан, 1990й.

8. Белинский В.Г. Танланган асарлар. - Т.: Ўздавнашр, 1955й.
9. Бобоев Т. “Адабиётшуносликка кириш” курсидан ўқув методик қўлланма. - Т.: Ўқитувчи, 1979й.
10. Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. - Т.: Фан, 1974й.
11. Брехт Б. Песий, статьи, вийсаказывания. В пяти томах, 1965й.
12. Воҳидов Э. Шоиру шеър у шуур. Адабий ўйлар. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987й.
13. Гёте Й.В. Ҳикматлар хазинаси Т.: Шарқ, 2008й.
14. Мўминов Ғ. Ҳозирги ўзбек достончилигида услубий изланишлар. Жанрлар типологияси ва услуб ранг – баранглиги. - Т.: Фан, 1983й.
15. Мухтор А. Ёш дўстларимга. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977й.
16. Мирзаев С. Ўзбек реалистик адабиётида фолкълор анъаналари. - Т.: Истиклол, 2005й.
17. Мўминов Ғ. Ўзбек совет адабиёти тарихида фолкълорларнинг роли. -Т.: Фан, 1985й.
18. Мирзаев Т, Жўраев М. Наврўз. -Т.: Фан, 1992й.
19. Муродов Ш. Жанровие особенности современной узбекской поэмы. - Т.: Ташкент, 1984й.
20. Навоий А. Муҳокаматул-луғатайн. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. - Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1967й.
21. Навоий А. Муҳокаматул-луғатайн. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том. - Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1967й.
22. Навоий асарлари луғати. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972й.

23. Норматов У. Кўнгилларга кўчган шеърийят. -Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006й.
24. Норматов У, Ҳамдам У. Дунёни янгича кўриш еҳтиёжи. “Жаҳон адабиёти”, 2002й, декабр сони.
25. Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. Адабий мақолалар. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988й.
26. Раҳимжонов Н. Ўзбек совет адабиётида поэма. Т.: “Шарқ”, 1986й
27. Расулов А. Бадиийлик — безавол янгилик. - Т.: Шарқ, 2007й.
28. Солиев А. Ҳаёт, адабиёт, инсон талқини. - Т.: “Таффакур қаноти”, 2010й.
29. Гернова Т.А. Современный литературный процесс. Учебное пособие для вузов. ([http\\www.lib.vsu.ru](http://www.lib.vsu.ru)) 2006й.
30. Хализев В.Е. Теория литературы. -М.: Вийсша школа, 1999й.
31. Ҳамдам У. Янгиланиш еҳтиёжи. - Т.: Фан, 2007й.
- Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. - Т.: Шарқ, 2004й.
32. Ҳасанов Ш. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси. ДД. Тошкент, 2004й.
33. Ёқубов Ҳ. Адибнинг маҳорати. - Т.: Фан, 1966й.
- BADIIY ADABIYOTLAR:**
34. Алпомиш. - Т.: Шарқ, 1998й.
35. Асотирлар ва ривоятлар. - Т.: Ёш гвардия, 1990й.
36. Воҳидов Е. Садоқатнома. -Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986й.

37. Даврон Х. Ватан ҳақида етти ривоят. Достон. “Шарқ юлдузи”, 1990й, 7-сон.
38. Жўраев М. Эл деса Навоийни. А.Навоий ҳақида ривоятлар. - Т.: Чўлпон, 1991й.
39. Мирмуҳсин. Танланган асарлар. Биринчи жилд. Шеърлар, достонлар. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973й.
40. Мухтор А. Дол қоя. - "Шарқ юлдузи" журнали, 6-сон, 1986й.
41. Матжон О. Ҳаққуш қичкириғи. - Т.: “Адабиёт ва санъат нашриёти”, 1979й.
42. Мусурмонов Р. Рух насибаси. Достон. “Шарқ юлдузи”, 1994й, 3-сон.
43. Орипов А. Жаннатга йўл. Нажот қалъаси. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980й.
44. Орипов А. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001й.
45. Орипов А. Танланган асарлар. Биринчи жилд. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000й.
46. Отамурод И. Сен. - Т.: Қатортол-камолот, 1999й
47. Қўчқор У. Широқ. Ривоят. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973й.
48. Раҳимбоева Қ. Қишнинг охирлари. Достон. “Шарқ юлдузи”, 1988й, 4-сон.
49. Саъдулла Ҳ. Дўст кадри. Достон. “Шарқ юлдузи”, 1992й, 3-сон.
50. Сулаймон Т. Қорасоч. - Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1965й.
51. Фахриёр. Ёзиқ. Достон. “Шарқ юлдузи”, 1991й, 3-сон.
52. Фахриёр. Дарднинг шакли. Шеърлар ва достон. - Т.: Ёзувчи, 1997й.
53. Ҳожиева О. Кўзимнинг оқу қораси. - Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996й.

54. Юсуф М. Сайланма. Шеърлар, дostonлар. - Т.: Шарқ, 2004й.

55. Шукур Қ. Сўз йўли. Тарихий дoston. “Шарқ юлдузи”, 1991й,
2-сон.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I. Zamonaviy dostonlarning shakliy rang-barangligi	10
II. Rivoyat – dostonlar badiiyati.....	36
UMUMIY XULOSALAR.....	60
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	64
Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar.....	64
Ilmiy-nazariy adabiyotlar.....	64
Badiiy adabiyotlar.....	66